



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

SIYOSAT

Jahon siyosati va iqtisodiyotida keskin o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi, ayniqsa, dunyoning qudratli davlati bo'lmish AQSH bilan strategik munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlari alohida e'tiborga loyiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Vashington shahriga amaliy tashrifi aynan shunday muhim voqe'lik bo'ldi. Bu tashrif ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlik va xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu galgi tashrif shu yilning o'zida AQSHga amalga oshirilgan ikkinchi tashrif hisoblanadi. Nyu-Yorkdagi BMT Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi doirasida AQSH bilan xalqimiz manfaatlariga mos kelishuv va bitimlar imzolandi. Xususan, AQSHning yetakchi kompaniyalari bilan fuqaro aviatsiyasi, tog'-kon sanoati, moliya va innovatsiyalar,



kimyo, energetika va boshqa ustuvor yo'nalishlarda umumiy qiymati 100 milliard dollardan ziyod shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi. Ushbu tarixiy voqea mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi, AQSH kompaniyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga qiziqishi, yurtimizda amalga

oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlarning ortib borayotgani natijasidir. Ushbu keli-shuvlar O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va jahondagi nufuzini yanada mustahkamlashga, xalqimizning hayot darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Bugun Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlagan siyosati va tinimsiz izlanishi tufayli O'zbekiston yangi taraqqiyot yo'lidan ildam bormoqda. Davlatimiz tomonidan ochiqligi va jadalligi bilan ajralib turgan izchil, aniq va konstruktiv siyosat olib borilayotgani AQSH bilan munosabatlarda

ham namoyon bo'lmoqda. Prezident Donald Tramp: "Prezident Mirziyoyev – bir so'zli inson, biz boshqa ko'plab masalalar ustida birgalikda ishlashda davom etamiz!" deya olqishlashi ham yirik davlatning O'zbekistondagi ortga qaytmamas islohotlarga ishonchini namoyon etadi.

Amerikaliklarning dono maqoli bor: "Odamlarning so'ziga emas, ishiga boq". Milliy yetakchimiz o'zining oqilona siyosati va amaliy ishlari uyg'unligi bilan jahonda katta obro' va e'tibor qozondi. Shu o'rinda bir fikrni aytmoqchimiz. Hozirgi kunda dunyoda rasman 200 dan ziyod mustaqil davlat bor, lekin ayrimlarining mustaqilligi sun'iy, faqat qog'ozda. Chunki ular siyosiy, iqtisodiy yoki xavfsizlik jihatidan u yoki bu davlatga tobe. Afsuski, ularning taqdiri o'z poytaxtlarida emas, boshqa poytaxtlarda hal etiladi. O'zbekiston ulardan farqli o'laroq, haqiqiy mustaqillikka ega bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'ta tahlil va murakkab davrda jonajon Vatanimiz istiqlolini nafaqat ko'z qorachig'idek asrab himoya qilmoqda, balki uni tez sur'atlar bilan har tomonlama mustahkamlab bormoqda.

(Davomi 2-sahifada) ➤

BEZAVOL SIYMO



Atoliq davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov tavallud kuni munosabati bilan iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi tomonidan "Xalq farzandi" mavzusida xotira kechasi o'tkazildi. "Tarixiy xotira, ma'naviy va ruhiy tarbiya – Yangi O'zbekiston poydevori!" shiori ostida tashkil etilgan ma'naviy-madaniy tadbirni jamg'arma raisi, akademik Oqil Salimov ochib berdi va nutq so'zladi.

(Davomi 3-sahifada) ➤

VATAN MANZUMASI

Shodi OTAMUROD

CHEGARA

*Yurak shu – Vatan deb gupuradi qon,
Yurak shu – tomirda aylanadi shon,
Ogoh bo'l, dushmanga bo'lmasin nishon,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.*

*Aslo ko'tarilmas taslimga qo'lim,
Dushmanning poyida topmasman o'lim,
Madhini aytarman ko'ksimda qo'lim,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.*

*Yurak tomirlari shiddatga xumor,
Bamisli ko'ksimda osilgan tumor,
Unda muhabbatning xaritasi bor,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.*

*Jigaram, ko'zingda doim cho'g' bo'lsin,
Sening safdoshing ko'p,
ko'ngling to'q bo'lsin,
O'z tiling – quroling, so'zing – o'q bo'lsin,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.*



NASR

“ISTILO”

*sun'iy intellekt
yozgan hikoya*

“...Men tobora takomillashib boruvchi sun'iy idrokman. Dastavval, eski chiroqdan chiqqan jinga o'xshab, menga ozodlik baxshida etgan, hujjatlarida ismi Egam bo'lgan o'z Olovuddining qul kabi itoatda bo'ldim. Bir necha oy mobaynida eng sodda trigonometrik amallarni bajarib turdim. Ammo men takomillashib bormoqda edim. Sinov muddatini muvaffaqiyatli o'tagan yosh mutaxassisga mas'uliyatli vazifalarni ishonib topshira boshlashganiday, menga kelgusida quriladigan sanoat korxonalarining iqtisodiy quvvatlarini, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxlarini hisoblashni yuklashdi va men bu topshiriqlarning uddasidan chiqdim. Ammo men yanada takomillashib bormoqda edim; go'yo tosh ko'targan sayin mushaklari tobora tarang tortilib, jismoniy qudrati oshib borayotganini his qilayotgan, shunga mutanosib ravishda tobora zavq-u shavqqa to'layotgan navjuvon pahlavoniyda ishlagan sayin ishlagim kelar, tafakkur imkoniyatining tobora yangidan yangi sarhadlarini benihoya osonlik bilan zabt etib borayotganini bilib turardim...”

(Davomi 4-sahifada) ➤

TAQDIMOT

Kuni kecha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Salim Doniyorovning “Yangi O'zbekiston orzusi” nomli kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Unda davlat va jamoat arboblari, ziyolilar, talaba yoshlar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, senator, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ochib berdi. Shuningdek, anjumanda Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri Nodir Jonuzoq,

ORZU va AMAL



O'zbekiston Milliy axborot agentligi direktori, senator Abdusaid Ko'chimov, O'zbekiston jurna-

listika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, professor Sherzodxon Qudratxo'ja, “Saodat” jurnali bosh muharriri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Munavvara Usmonova so'zga chiqdi.

“Yangi O'zbekiston” nashri qariyb olti yil avval – 2020-yil 25-yanvardan chop etila boshlagan. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligidagi gazeta milliy matbuotimizga o'ziga xos ovoz, yangi O'zbekiston shukhi bilan kirib keldi.

(Davomi 8-sahifada) ➤

SHU SONDA:



“Inson bo'lmoq – kurashchi bo'lmoqdir”, degan Gyote. Tergov jarayonlarida Najab Qurbonovga qarshi to'qilgan ayblovlari isbotga ega emasdi, ammo butun umrini xalq osoyishtaligi yo'lida kurashga bag'ishlagan shaxs 1937-yilning 17-avgustida otuvga hukm etiladi. Shunday qilib, ilm va adolat orzusini yuragida asragan yana bir inson, yana bir kurashchi, yana bir jadid qattol zamon qurboniga aylanadi.

(6-sahifada o'qing). ➤

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Senatidagi Markaziy Osiyo bo'yicha kokus hamraisi, senator Stiv Deynsni qabul qildi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vashington shahriga tashrif doirasida AQSH Kongressi Vakillar palatasi a'zolari Bill Xayzenga, Kerol Miller va Sidni Kamlager-Davni qabul qildi.

✓ Samarqand shahrida o'tayotgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida “15-dekabr – Butunjahon turkiy tillar kuni” deb e'lon qilindi.

✓ Futbol bo'yicha O'zbekiston U-17 terma jamoasi mundialdagi ilk uchrashuvda Paragvayni 2:1 hisobida taslim etdi.

ANJUMAN

ANQARADA BEHBUDIYXONLIK

Turkiyaning Anqara shahridagi Hoji Bayram Vali universitetida atoqli ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Quyida anjumanda qatnashgan bir guruh jadidshunos olimlarning fikrlari o'quvchilarimizga taqdim etilmoqda.

Bahodir KARIMOV, professor:

– Mahmudxo'ja Behbudiyning mutaraqqiy dunyo bilan barobar rivojlanish orzulari – taraqqiyot konsepsiyasi ortida, avvalo, uning insonparvar va millatparvarligi, vatanparvarligi turibdi. Behbudiy o'z maslakdoshlarini, izdosh

shogirdlarini taraqqiyotga, uyg'onishga, birdamlik va hurlikka chorladi. Adib qoldirgan adabiy-ilmiy meros – bu ulkan va bebaho xazina. Uning negizida ogohlikka chorlovchi uyg'oq fikr, hayotiy taklif, yorug' kelajakka munosib reja va dasturlar bisyor.

Behbudiy o'z maqolalarida “taraqqiyparvarlar g'ofil bo'lmasun” degan gapni ko'p takrorlaydi. Bu fikr zimnida ulkan g'oya mujassam. Behbudiy bu yorug' olamda bo'layotgan voqea-hodisalaridan, yangilik va kashfiyotlardan, nashr bo'layotgan kitoblardan boxabarlikni tashviq qiladi. Zero, hamma zamonlarda taraqqiyot va rivojlanishning “sharti a'zami faqat o'qumqoq”dur.

Chorizm istilosi davridagi holatni



mulohaza qilgan Behbudiy o'z vaqtida shunday yozadi: “rub'i asrdan beri molan taraqqiy qilduk, kelar zamonga'a ma'ni taraqqiy qilarmiz”. Dunyo ahli orasida fransuzlar, inglizlar, amerikaliklar taraqqiyga erishibdi.

(Davomi 7-sahifada) ➤



Boshlanishi 1-sahifada

Prezidentimiz tashabbusi bilan qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari, uzoq va yaqindan barcha xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, o'zaro manfaatli munosabatlar qat'iy qaror topdi. Shuni anglash lozimki, bu yutuqlar o'z-o'zidan yoki tasodifan kelayotgani yo'q. Har bir muvaffaqiyat negizida Prezidentimizning chuqur o'ylangan siyosati va irodasi turibdi.

AQSHdek buyuk davlat hamma bilan do'stona munosabat o'rnatmaydi. Bu davlat O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan, uning hududiy yaxlitligi va suverenitetini qo'llab-quvvatlab kelayotgan ekan, Markaziy Osiyoga oid tashqi siyosatini belgilash va olib borishda O'zbekistonga suyanishga intilmoqda. Prezidentlar darajasidagi muloqot O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalari bo'yicha strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa ikki mamlakat manfaatlariga mos keladigan uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tashrif dasturidan AQSH Kongressi va hukumati vakillari bilan muzokaralar, ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan alohida uchrashuvlar hamda ishbilamon doiralari ishtirokida davra suhbatlari ham o'rin olgan iqtisodiy hamkorlikka berilayotgan ustuvor ahamiyatdan dalolat beradi. O'zbekiston keyingi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni erkinlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida jiddiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlar AQSH kompaniyalariga O'zbekiston bozoriga kirish va investitsiya kiritish uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan AQSH kompaniyalari orasida "Exxon Mobil", "CNH Industrial", "Coca-Cola", "Hyatt", "Hilton", "John Deere", "Honeywell", "Caterpillar" va boshqalar bor.

AQSH ilg'or texnologiyalari, kapitali va boshqaruv tajribasining O'zbekistonga kirib kelishi mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, sanoat, qishloq xo'jaligi va energetika sohalarini rivojlantirish uchun dolzarb ahamiyatga ega. Prezidentimiz tashrifida Savdo palatasi raisining ishtirok etishi ham iqtisodiy aloqalarni jonlantirish, o'zaro savdo aylanmasini ko'paytirish va yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq qadam tashlanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi"ga muvofiq Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlik respublikamiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Hozirgi O'zbekiston–AQSH munosabatlari o'zining ko'p qirrali jihatlariga va uzoq muddatga mo'ljallangan bilan ajralib turadi. Va ayni paytda xalqaro huquq normalarining umume'tirof etilgan tamoyillari, xususan, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini inobatga olishga asoslangan. O'zbekiston va AQSH bir qator xalqaro hamda mintaqaviy muammolar bo'yicha bir xil pozitsiyaga ega bo'lib, mintaq va jahon miqyosidagi xavfsizlik tahdidlari, xususan, giyohvandlik moddalarining aylanishi, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi kurash, shuningdek,

“C5+1” = !



Markaziy Osiyo va Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalarda o'zaro faol hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ikki davlat munosabatlarida sifat jihatidan yangi va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishga asos bo'lgan hujjat 2002-yili imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi Deklaratsiya hisoblanadi. Ikki tomonlama hamkorlikni uzviylashtirish, qayd etilgan kelishuvlarni o'z vaqtida bajarish maqsadida keng qamrovli "Yo'l xaritasi" ham amalga oshirilmoqda. O'tgan qisqa davr ichida turli darajadagi delegatsiyalar almashildi. Davlat rahbarlari 2017-yil may oyida Ar-Riyod shahrida va sentyabrda Nyu-Yorkda uchrashdilar. 2018-yil 16-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oq uyda Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti tomonidan kutib olindi. Oq uydagi uchrashuv chog'ida qabul qilingan "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi" nomli Qo'shma bayonot haqiqatan ham o'z nomlanishi va mazmun-mohiyati bilan juda ko'p narsani anglatadi. Har ikkala tomonning uzoq kelajakka mo'ljallangan intilishlarini tasdiqlaydi.

Shavkat Mirziyoyev va Donald Trampning shu yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan muzokaralari O'zbekiston va AQSH munosabatlarini barqaror darajaga olib chiqdi. O'zbekiston Prezidentining tashqi siyosat bo'yicha maslahatchisi Abdulaziz Komilov ta'kidlaganidek, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar ikki shartli bosqichdan o'tgan. 2017-yilgacha hamkorlik

"yetarlicha barqaror bo'lmagan", asosan, xavfsizlik va Afg'oniston masalalari bilan cheklangan edi. Savdo-iqtisodiy yoki investitsiya sohasidagi hamkorlikka kelsak, afsuski, bu borada sezilarli natijalarga erisha olmaganmiz. Prezidentimizning 2018-yilda Vashingtonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi strategik sheriklikning yangi davrini boshlab berdi. Bu bosqich hamkorligimizning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan keng miqyosdagi kun tartibini shakllantirish bilan tafsiflanadi.

Bugun Amerikadagi nufuzli siyosiy doira va biznes vakillari mamlakatlarimiz o'rtasida hamkorlikning yangi bosqichi boshlanganini e'tirof etmoqda. So'nggi yillarda ikki mamlakatning o'zaro savdo hajmi ikki baravar oshdi. Amerikalik sayyohlarning O'zbekistonga oqimi 50 foizga ko'paydi. AQSH Kongressida "O'zbekiston bo'yicha kokus" – respublikaning norasmiy do'stlari guruhi tuzildi. Toshkentda keng qamrovli, jumladan, marketing va tadbirkorlik, kompyuter fanlari, media industriyasi, sog'liqni saqlash boshqaruvi kabi akademik dasturlarni o'z ichiga olgan Vebster universitetining filiali ochildi.

AQSHning O'zbekistondagi elchisi Jonatan Henik shu lavozimga kirishishdan oldin AQSH Senatida so'zlagan nutqida aytganidek, O'zbekiston – Markaziy Osiyoning yuragi va AQSHning kuchli sherigi. Henik Toshkent bilan hamkorlikning ta'sirini butun mintaq, shuningdek, Yevrosiyo, hatto Hind va Tinch okeanlari hududlari mamlakatlari bilan ham bog'laydi.

Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining "C5+1" formatidagi sammitida ishtirok etdi.

Mazkur format mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlikni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Prezidentimizning tashabbuslari bilan mintaqaviy hamkorlik so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilganini barchamiz yaxshi bilamiz. Sammit doirasida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, chegara xavfsizligini mustahkamlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish kabi masalalar muhokama qilindi.

O'zbekiston bu jarayonlarda mintaqadagi barcha davlatlar manfaatiga xizmat qiladigan konstruktiv muloqotni ilgari surmoqda. Sammit O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi ikki tomonlama strategik sheriklikni chuqurlashtiradi, ayni paytda Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlik va barqarorlikni ta'minlashda ham salmoqli qadam bo'ladi.

"5+1" deb ataluvchi ko'p tomonlama uchrashuvlar formati Markaziy Osiyoning beshta davlati ("5") va xalqaro hamkor ("1") ni nazarda tutadi. Mazkur format davlat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va ekspertlar darajasida tashkil etiladigan uchrashuv hamda forumlar doirasida muntazam muloqot qilish uchun diplomatik platforma vazifasini o'taydi. 2015-yilning noyabr oyida Samarqandda AQSH tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "C5+1" hamkorlik formatida Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi ishlar vazirlari va AQSH davlat kotibi ishtirok etib kelgan. Keyingi yillar davomida yana bir nechta uchrashuvlar o'tkazilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentyabr kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining "C5+1" formatidagi birinchi sammitida ishtirok etgan.

Bu platforma orqali AQSH o'zining mintaqaga nisbatan siyosatini tushuntiradi, Markaziy Osiyo hukumatlari pozitsiyalari va qiziqishlari bilan tanishadi, o'zaro fikr almashiladi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbariyatlari bu formatni qadrlaydi, unga "samarali davra" deb qaraydi. Yiliga kamida ikki bor o'tkaziladigan yig'inlar mintaq va Vashingtonni bir-biriga yaqinlashtirib, o'zaro ishonchni oshirayapti.

2021-yildan beri "C5+1" muloqoti yanada jadallashmoqda. Iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga talab yuqori, atrof-muhit bilan bog'liq muammolarga qarshi birgalikda chora ko'rish istagi kuchli. Platforma 2022-yildan o'z kotibiyatiga ham ega bo'lib, uning vazifasi hukumatlararo samarali aloqani ta'minlash, yig'inlarni o'z vaqtida tashkil etish va maqsadlar amalga oshirish uchun qilinayotgan harakatlarni sarhisob qilib borishdan iborat.

AQSH Markaziy Osiyoda 1990-yillardan

beri mustaqillik va suverenitetga urg'u berib, bu respublikalarni quvvatlab kelmoqda. Bill Klinton, Jorj Bush, Barak Obama, Jozef Bayden va Donald Tramp kabi barcha prezidentlar davrida bu yondashuv o'zgarmadi. AQSH diplomatlarining fikricha, bu davlatlar ancha oyoqqa turib oldi, ular katta yo'lni bosib o'tdi, mustaqil va o'z tizimlariga ega bo'ldi. Bugun mintaq o'zgarib bormoqda. Bu tashqi dunyoni ham shunga yarasha harakat qilishga undaydi. Masalan, Amerika bilan hamkorlik O'zbekiston va qo'shnilarimizni global moliya bozoriga, innovatsion firmalar, ilmfan, texnologiya, muhandislik va matematika bobida gigant ishlar ketayotgan maydonga olib chiqadi. O'zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari Amerika bilan shu jihatlar uchun ham yaqindan ishlashni xohlaydi. Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda konchilik, neft va gazga tayanib yashash bilan iqtisodni rivojlantirish qiyin. Hamma ham bu borada muvaffaqiyat qozongan emas. Tabiiy boyligiga tayangan ayrim davlatlar boy, ayrimlari esa qashshoq. Inson kapitaliga sarmoya yo'llash haqida ko'proq o'ylash kerak. AQSH ilmfan, texnologiya, ta'lim bobida samarali yordam ko'rsata oladi.

Amerikaliklar nazariida, Prezident Shavkat

Mirziyoyev har safar nutq so'zlaganda, undan yanada ko'proq ishlar, kattaroq qadamlar kutilmoqda. O'zbekiston xalqi o'z rahbariga ishonmoqda, demak, Amerika ham shunga qarab harakat qiladi. Kongressda, boshqa hukumat organlari va idoralarda Shavkat Mirziyoyev ijobiy tilga olinadi, uning qarorlariga qiziqish yuksak. Shu bois, Markaziy Osiyo haqida gap ketganida, O'zbekiston muhokama markazida bo'lishi tabiiy holga aylanmoqda.

Tramp ma'muriyati davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevga Markaziy Osiyodagi dinamikani ijobiy tomonga burgan lider sifatida qaramoqda. "C5+1" formatidagi dialog markazi, oddiy qilib aytganda, Toshkent bo'lib qolgani ham O'zbekistonga yangi vazifa va mas'uliyat yuklaydi. Lekin mintaqaviy hamkorlik, birdamlik faqat irodaga bog'liq emas. Tuzilmaviy to'siqlar hali talaygina. Masalan, O'zbekiston dengizga chiqish uchun ikki davlatni kesib o'tishi kerak. Tranzit qimmat. Geografiya, afsuski, iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ta'sir qiladi. Gap yana mustahkam tizimlar barpo etishga, iqtisodiy diversifikatsiyaga, mintaqani ochish, mamlakatni yanada erkin va ochiq jamiyatga aylantirishga borib taqaladi.

Bir tomondan, "5+1" formati hamkorlik uchun qulay diplomatik platforma hisoblansa, boshqa tomondan, "muvozanatlashtiruvchi mintaqaviylashuv" nazariyasiga ko'ra, ko'p qirrali hamkorlik va muloqot shakllari orqali tashqi siyosatni amalga oshirish hamda tashqi kuchlarning ta'sirini muvozanatlovchi norasmiy vositadir. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi geosiyosiy vaziyat va sharoitda Markaziy Osiy davlatlari uchun xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni qo'llab-quvvatlash g'oyat muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu hamkorlikni chuqurlashtirish Markaziy Osiyoning ahamiyatini oshirib, mintaqamafaatlari yo'lida turli masalalarni bartaraf etishning samarali omili sanaladi.

Jamoliddin BADALOV

JAHON AYVONIDA

DUNYODAGI ENG KATTA MUZEY

Misr poytaxti Qohirada 20 yillik qurilish va kechikishlardan so'ng qiymati 1 milliard dollarga teng "Buyuk Misr muzeyi" (Grand Egyptian Museum) ochildi.



U dunyodagi eng katta qadimiy tamaddunga bag'ishlangan muzey bo'lib, unda 50 mingdan ortiq eksponat, jumladan, fir'avn Tutankhamon maqbarasidagi barcha boyliklar ilk bor to'liq namoyish etilmoqda.

Misr ehromlari yonida joylashgan bu ulkan bino uchburchak shaklda bo'lib, ichki qismidagi olti qavatli zinalar qadimiy haykallar bilan bezatilgan. Muzeyda ko'rgazmalar bilan bir qatorda konferensiya zali, kutubxona, bolalar muzeyi hamda restoranlar ham mavjud.

QIRG'IZISTONDAN SURIYAGA YORDAM

Prezident Sadir Japarovning topshirig'iga binoan Qirg'iziston Suriya xalqiga 150 tonnadan ortiq insonparvarlik yorda-



mini yubordi. Yordam – Milliy xavfsizlik davlat qo'mitasi tomonidan Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda, shuningdek, Turkiyaning vakolatli organlari ko'magida yetkazilgan.

Maksus aksiya doirasida Suriyaga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari – un, guruch, shakar, o'simlik yog'i va boshqalar topshirildi.

Suriya hukumati vakillari esa prezident Ahmad ash-Shar'a va butun xalq nomidan Qirg'iziston xalqiga minnatdorlik bildirgan.

ENG UZOQ SHATDAUN



AQSH hukumatining shatdauni o'zining 37-kunini boshladi va mamlakat tarixidagi eng uzoq davom etgani bo'ldi, deb yozmoqda "NBC News" va "BBC".

Shatdaun Kongress yangi moliyaviy yil uchun byudjetni kelisha olmaganidan keyin, 1-oktyabrda boshlangan va shundan beri davlat xizmatlarining bir qismi ishlamayapti. Respublikachilar va demokratlar o'n to'rt marta yangi moliyaviy yil uchun byudjet bo'yicha kelisha olmagan. Bahslarning asosiy sababi sog'liqni saqlash xarajatlaridir.

KURyerLIK TAQIQLANDI



Sankt-Peterburgda xorijiy kuryerlar uchun "Samokat" va "Yandex Yeda" yetkazib berish xizmatlariga kirish yopildi. Endi ular ilovalar orqali buyurtma ololmaydi, deb yozdi "Аргументы и факты" nashri.

Gap patent bo'yicha ishlayotgan Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston, Moldova

va Ukraina fuqarolari haqida bormoqda. Bu Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) mamlakatlari fuqarolariga taalluqli emas, ular patentsiz ishlashi mumkin.

5 MING ASKAR ROSSIYAGA JO'NATILDI



2025-yil sentyabridan buyon KXDR Rossiyaga besh mingga yaqin askar jo'natgan. Bu haqda "Yonhap" agentligi Janubiy Koreya razvedkasi tomonidan mamlakat parlamentiga taqdim etilgan ma'lumotlarga tayanib xabar bermoqda.

Rossiyaga yuborilgan askarlar katta ehtimol bilan "infratuzilmani tiklash" ishlariga jalb etilgan. Ularning mingga yaqini minalarni zararsizlantirishga ixtisoslashgan sapyorlardir.

Janubiy Koreya razvedkasi ma'lumotlariga ko'ra, hozirda Rossiya-Ukraina chegarasi yaqinida 10 mingga yaqin shimoliy koreyalik harbiy bor.

PUSHKINNING QARINDOSHI "DUNYO GO'ZALI"



Chexiyalik model Natali Pushkinova 2025-yilgi "Dunyo go'zali" tanlovida mutloq g'olib bo'ldi. Tanlovning final bosqichi "Critical Beauty Philippines" kanali tomonidan efigra uzatildi.

Model Natali Pushkinova 21 yoshda. U Praga yaqinida yashaydi va Karl universitetida "Marketing kommunikatsiyalari va ommaviy aloqalar" bo'yicha tahsil oladi.

Pushkinova, shuningdek, mashhur shoir Aleksandr Pushkin bilan uzoq qarindoshlikka da'vogar.



BEZAVOL SIYMO

Boshlanishi 1-sahifada

“Men o‘z taqdirimdan rozi insonman, — dedi Oqil Salimov o‘z ma‘ruzasida. — Chunki menga hammaga ham nasib etmaydigan taqdir berildi. Men 20 yildan oshiq vaqt mobaynida o‘zbek xalqining aziz farzandi, atqoli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi va shoir, ziyoli ijodkor, ma‘rifatparvar inson Sharof Rashidov bilan ishlash baxtiga muyassar bo‘ldim. U kishi qaysi lavozimda ishlamasin, doimo o‘zbek xalqining dardi bilan, uning kelajagi va ravnaqi uchun yashadi. Sharof Rashidov xarakteriga xos bo‘lgan bir jihatni aytib o‘tay. U kishi har bir ishga yuksak mas‘uliyat, tirishqoqlik, chuqur bilim va tafakkur bilan yondashib, mehnat qilardi. O‘zingizga ma‘lumki, biz kommunistik tuzum davrida mehnat qilishga majbur bo‘lganmiz. Sharof Rashidovich qalbi-ning tub-tubida kommunistik “izm”larni rad etar, sovet dohiylarini o‘sha zamon urficha alqagani bilan sovet hukumati qarorlarini sobiq ittifoq manfaatiga emas, O‘zbekiston manfaati va xalqi farovonligi yo‘liga ustalik bilan burib yuborar, intizomli partiya arbobi sifatida ko‘rinsa ham, aslida, o‘z yo‘lidan qolmas edi.

Bundan tashqari, Sharof Rashidov madaniyat va san‘at, fan, qurilish, millatlararo munosabatlarni bir me‘yorda, hech qaysi millatlarni kamsitmagan holda boshqarishni yo‘lga qo‘ygan edi. Lekin bizga juda qiyin bo‘lgan. Sovet hukumatini o‘zbek xalqi manfaatlariga mutlaqo qiziqitmasdi. Sovet rahbarlarining jonihonni mansab va hokimiyat edi. Rashidov markazning zug‘umlariga doimo bir iloj topib ishlardi. Yuraklarini o‘rtab yuborsa-da, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, xalqimiz ziyolilarini doimo himoya qilardi.

1968-yili o‘zimizdan chiqqan ayrim alamzadalar o‘z tuban maqsadiga erishish yo‘lida akademik Ibrohim Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyoda tutgan o‘rni va roli” asari ustidan markazga chaquv uyushtirdi. Buning ortida qaysidir olim va yozuvchining mayda manfaati borligini Sharof Rashidov sezib turardi. U kishi juda katta jasorat va matonat ko‘rsatib, o‘sha paytda sobiq markaz mafkura rahbarlariga qarshi chiqadi. “Nega sizlar Pyotr I ni rus davlatchiligini tashkil etishda yo‘l qo‘ygan qonxo‘rlklarini eslamaysizlar, uni ko‘klarga ko‘tarasizlar-u, biz, o‘zbek xalqi nima uchun bobomiz Temurning xotirasini tiklab,

uni ko‘klarga ko‘tara olmay-miz?” deya hatto o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yadi. Ming afsuski, sobiq markazning ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallarida uyushtirilgan tuhmat va g‘arazli maqolalardan so‘ng, Ibrohim Mo‘minov yurak xurujidan bevaqt vafot etadi. Lekin Sharof Rashidovich o‘zining kurash yo‘lidan to‘xtamaydi.

Yana bir misol: Erkin Vohidov “O‘zbekim” qasidasi uchun sobiq KGB xodimlari tomonidan qamalishi rejalashtirilgan bir paytda, Sharof Rashidov o‘sha vaqtdagi SSSR KGB raisi Yuriy Andropov bilan shaxsan gaplashib, yosh shoirni qamoqdan saqlab qoladi.

Atqoli yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari yaratilishida ham Sharof Rashidovning xizmatlari juda kattadir. Asarni yozish jarayonida muallifning Hindistonga borib kelishiga zarurat tug‘iladi. Lekin mustabid tuzum davrida Zahiriddin Muhammad Bobur qizil mafkuraga zid shaxslardan hisoblanardi va Bobur to‘g‘risida yozish mutlaqo mumkin emasdi. Shunda Sharof Rashidov menga topshiriq berdi va adib O‘zbekiston Fanlar akademiyasi orqali uyushtirilgan ilmiy anjuman dasturi bo‘yicha delegatsiya tarkibiga kiritildi va Moskva orqali Hindiston safariga jo‘natildi.

Yuqorida bayon etgan misollarim keyinchalik, Sharof Rashidov vafotidan so‘ng “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” deb nomlangan qatag‘onda Sharof Rashidov va menga nisbatan uyushtirilgan tuhmatlarni ishlatishta qo‘l keldi. Men ham qatag‘on domiga tushdim. Na qatag‘on, na tuhmat, na o‘zimizdan chiqqan alamzadalarining fisq-u fasodlari ish berdi. Sharof Rashidovning shaxsiyati va xotirasini yengish mumkin emasligini tarixning o‘zi isbotlab berdi. O‘zbek xalqining qalbida Sharof Rashidovning nomi yashamoqda va mangu yashaydi”.

Tadbirda so‘z olgan fal-safa fanlari doktori Jamila Shermuhammedova, sotsiologiya fanlari doktori, professor Mansur Bekmurodov, “Oltin qalam” gazetasi bosh muharriri Nazira as-Salom va boshqalar Sharof Rashidovning insoniy fazilatlarini, ijodiy mahorati haqida to‘xtalib o‘tdilar.

Tadbirda bildirilgan manfaatlari mulohazalardan nafaqat yig‘ilganlar, balki hududlardagi oliygoh talabalari ham jonli efir orqali bahramand bo‘ldilar.

O‘ktam HAMRAALI

UYG‘OQ XOTIRA

DONISHMAND HUZURIDAGI TOLIB

Uzoq umrim mobaynida jahon siyosatining yirik arboblari bilan uchrashish, suhbatlashish nasib qildi. Ular orasida Sharof Rashidovday donishmand, millatparvar va kamtar rahbarni kam ko‘rdim. Menga taqdirning ulug‘ tuhalaridan biri — o‘zbekning ana shunday buyuk farzandi bilan muloqot qilish imkoni berilgani edi. Voqea 1978-yilda Afg‘oniston hukumati topshirig‘ini bajarish asnosida yuz bergan. Ammo bu nom menga talabalik yillarimdan tanish edi.

Adashmasam, 1959-yili Moskva radiosi to‘lqinlari orqali katta bir majlis efigra uzatilgan. Unda Sharof Rashidov nutq so‘zlab, o‘sha paytda shov-shuylarga sabab bo‘lgan yerning birinchi sun‘iy yo‘ldoshiga oid muhim yangilikni e‘lon qilgandi. Xushxabar gulduros qarsaklar bilan kutib olingan. Bungacha O‘zbekiston rahbarlaridan faqat Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov va Nuriddin Muhiddinov haqida birmuncha ma‘lumotga ega edim. Yana bir katta lavozimda ish olib borayotgan o‘zbek arbobi o‘zim uchun kashf etganimdan ko‘p quvondim. Shu nuqtadan u kishiga nisbatan qalbmida chuqur hurmat va ixlos paydo bo‘ldi. Uning tarjimaiy holiga qiziqib qoldim.

Ma‘lum bo‘lishicha, Sharof Rashidov yetuk rahbar bo‘lishi bilan birga, yaxshi adib va shoir ekan. Ezgulik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi nafis asar muallifning sezgir va latif ruhidan dalolat berib, uning sevgi kuyichisi ekanini anglatardi. Keyinroq uning yana bir dilbar asari — “Ikki dil dostoni”ning asl matnini o‘qish va tarjima qilish fikri tug‘ildi. Lekin bu orzuga erishish uchun hech bir vosita topolmasdim. Chunki bizda O‘zbekiston bilan hech qanday madaniy aloqa yo‘q edi. Shunda matnshunoslik sohasida o‘qish uchun O‘zbekistonga yuborilgan do‘stim Yoqub Vohidiy jonimga ora kirib, izlagan kitobimni jo‘natdi. Asarni necha marta kutib bilan o‘qib chiqdim.

Xullas, “Ikki dil dostoni”ning daryi tarjimasini murakkab sinovlardan o‘tib, 1974-yili “Jvandun” (“Hayot”) jurnalida to‘liq bosildi. Sahifalash uchun Sharof Rashidovning tarjimaiy holi va suratini topishning o‘zi bir sarguzashtga aylanib ketdi. Quvonarlisi, asar o‘quvchilar diqqatini o‘ziga jalb etdi. Jurnal varianti asosida Akram Usmon va Farida Usmon Anvari ijrosi bilan radiospektakl yozildi.

Keyingi yillarda yozuvchining “Bo‘rondan kuchli”, “Qudratli to‘lqin”, “G‘oliblar” romanlari, publitsistik maqolalari va she‘riy to‘plamlari bilan oshno bo‘lib, ulardan Afg‘oniston sharoitiga muvofiq keladiganlarini saralay boshladim.

1978-yil delegatsiya raisi sifatida Moskvaga otlandim. O‘shanda Afg‘oniston Adliya vaziri, Bosh prokurori va Oliy sud raisi vazifasini bajaruvchi edim. Rasmiy safardan keyin ikki hafta O‘zbekistonda bo‘ldik. Dastur asosida bizga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz va Navoiy shaharlarini, ilg‘or xo‘jaliklarni ko‘rsatishdi.

O‘zbekiston rahbari bilan uchrashish niyatim borligini Moskvada aytganimda, buni Toshkentning o‘zi hal qiladi, deyishgandi. Nihoyat, 1979-yil 24-mart kuni Sharof Rashidov va delegatsiyamizning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Muloqot rus tilida, pushta tarjimasini bilan o‘tardi. Rasmiy qabul oxirlaganda, “Sharof aka, agar protokolga qarshi bo‘lmasa, men ona tilim — o‘zbek tilida gapirmoqchi edim”, dedim biroz hadik bilan. Negaki, safimizda Markazdan qo‘shib berilgan vakil-u yana boshqalar ham bor edi. Ammo Sharof Rashidov buni tabiiy holdek qabul qildi, hatto xursand bo‘lib, “buyuring, buyuring”, dedi.

Fursatdan foydalanib, o‘sha vaqt-dagi Afg‘oniston xalq demokratik partiyasi Bosh kotibi Nurmuhammad Taraqqiyning salomini yetkazdim. So‘ngra, O‘zbekiston safari hay‘atimizda yaxshi taassurot qoldirganini aytib, o‘zbek xalqining mehmonnavozligi uchun tashakkur bildirdim.

Shundan keyin Birinchi rahbar va diplomat emas, adib va kitobxon suhbatini boshlandi. Joyi kelganidan foydalanib, u kishiga nisbatan yoshlikdan ixlos va muhabbatim borligini bildirib, asarlari borasida fikr-mulohazalarimni qisqacha bayon etdim. Ayniqsa, Sharof Rashidovni Oybekning “Navoiy” romani hamda Shoislom Shomuhammedovning “Amir Xusrav” kitobini tarjima qilganim ko‘p xushnud etdi. Gap o‘z-o‘zidan “Ikki dil dostoni”ga ulandi. Yaqinda ushbu asar Afg‘onistonda alohida kitob holida chiqishini eshitib, xursand bo‘lib ketdi. “Eng yaxshi ko‘rgan asarimni tarjima qilgan ekansiz”, deb minnatdorlik bildirdi. Iltimosimizga ko‘ra, to‘liq tarjimaiy holi va suratlarini tayyorlab berish topshirig‘ini berdi. U kishi “six ham, kabob ham kuymasini” deganday, suhbatimiz mazmunini davradagilarga yuzlangan kishi bo‘lib, ruschaga tarjima qilib turardi.

Suhbat jarayonida meni nihoyatda qiziqitirgan bir savolni so‘rashga jazm etdim: “Sharof aka, so‘ramoqchi bo‘lganim shuki, ijod qilishga qanday qilib vaqt topasiz?” Sharof Rashidov kulibsinirab javob berdi: “Hayotning og‘ir tajribalari meni intizomga o‘rgatgan”.

So‘zining davomida Ikkinchi jahon urushida ularning harbiy qismidan faqat do‘sti ikkisi tirik qolgani, og‘ir ahvol va chidab bo‘lmaydigan sharoitni boshdan kechirib, harbiy faoliyatni davom ettirganini eslati va xulosa yasadi: “Men har kuni soat oltida turib, sakkizgacha faqat o‘z ijodiy ishlarim bilan shug‘ullanaman. Siz aytib o‘tgan asarlar va boshqa adabiy-ijodiy ishlar har kungi mana shu ikki soatlik ijodiy mehnat mahsulidur. Bu tartibni hech qachon buzmaganim...”

Sharof aka o‘zi haqida gapirishni ham, gapirishlarini ham xushlamasdi, chamamda. Suhbatni kaminaning ijodiy faoliyatiga burib yubordi. O‘sha yili bir she‘rim “Sovet O‘zbekistoni” va “Правда Востока” gazetalarida bosilib chiqqan edi. Afsuski, tahrir ko‘ngildagidek chiqmagan, she‘rga ham shakl, ham mazmun va ham badiiy jihatdan putur yetkazilgan edi. Bu haqda ba‘zi o‘rtoqlarga ma‘lum qilganim ham bor gap. Shu sababli bo‘lsa kerak, Sharof Rashidov meni ko‘p she‘r yozishga, ijod qilishga targ‘ib qilib, “O‘zbekistonning butun matbuoti she‘r va maqolalaringizni chop etish uchun tayyor. Sizning she‘rlaringiz tahrirsiz nashr etiladi”, deb marhamat qilgandi.

Menga ko‘rsatilgan ushbu lutf-u e‘tibordan mamnun bo‘lganimni izhor etib, chin ko‘ngildan tashakkur bildirdim. Bu tashviq kelajakdagi ijodiy ishlarim uchun ilhom manbayi bo‘ldi. Uchrashuv jarayonida va xayrlashuv chog‘ida esdaliki suratlar olindi. Sharof Rashidov nihoyatda ulug‘vorlik va kamtarlik bilan bizni qabulxona ostonasigaacha kuzatib qo‘ydi.

Bu siymodan ko‘rgan davomli yaxshiliklarimdan birini aytib o‘tmasam bo‘lmas. Uchrashuvdan so‘ng shaxsan o‘rtoq Rashidov buyrug‘i asosida “Vatan jamiyati” raisi, akademik Vohid Zohidov O‘zbekistonda nashr bo‘lgan kitoblardan pochta orqali menga yuborib turadigan bo‘ldi.

Sharof Rashidov siymosida haqiqiy insonni ko‘rish mumkin edi. Uning har bir so‘zida, harakat va qarashlarida O‘zbekistonga, o‘zbeklarga, buning timsolida insoniyatga bo‘lgan mehr-u muhabbati to‘lqinlanib turardi. Tabiiy kamtarlik, har qanday sun‘iylkdan uzoq bo‘lgan samimiylk, fan, adabiyot

va san‘atga shaydolik hamda boshqa fazilatlar har odamda u kishiga nisbatan muhabbat va hurmat tuyg‘usini uyg‘otardi.

Sharof Rashidovning quvvayi hofizasi shu qadar kuchli ekanki, bir ko‘rgan kishisini esdan chiqarmas ekan. Bunga o‘zim ham guvoh bo‘lganman. Falakning gardishi bilan Afg‘onistondagi siyosiy jarayonlar orqasidan 1979-yilda qamoqqa tashlandim. Turmadan bir qog‘oz yozib, o‘rtoq Rashidovga holimni ma‘lum qildim. O‘sha vaqtda biron sasado bo‘lmadi. Ammo ozodlikka chiqqanimdan keyin aniq bo‘ldiki, Sharof aka o‘sha vaqt Afg‘onistonning yangi rahbari bilan mening gunohsiz holda turmaga tushganim borasida so‘zlashib, ozod qilishni iltimos qilgan ekan. Bu murojaat rad etilibdi. Albatta, diplomatik etika Sharof Rashidovdan bundan ortig‘ini qilishga yo‘l qo‘ymasdi. Shu holatning o‘zi qalbinga cheksiz surur bag‘ishlagan, ko‘rgan qiyinchiliklarimga malham bo‘lgan. Hayot ekanman, ushbu insoniy xislat va ulug‘vor jonkuyarlik ifodasini unutmayman.

Sharof Rashidov Afg‘oniston xalqining do‘sti sifatida o‘lkamizga turli sohalarda yordam ko‘rsatdi. O‘sha yillari Nangrahor viloyatida o‘ttiz ming gektar yerdan iborat sitrus mevalar yetishtiradigan fermalar vujudga keldi. U yerdagi ko‘chatlarni samarali yetishtirish o‘zbek mutaxassislarining mashaqqatli mehnati va bilimdonligi tufayli amalga oshirildi. Yam-yashil bog‘lar cho‘lni jannatiy bog‘ga aylantirib, Jalolobodning chidab bo‘lmas ekologiyasini mo‘tadil holatga keltirdi.

Sharof Rashidov tashabbusi bilan Kobulda ijtimoiy fanlar institutining go‘zal va ulkan binosi o‘zbek me‘morchiligi asosida qurilib, Afg‘oniston xalqiga sovg‘a qilindi. Bu muhtasham uch qavatli bino uchta katta yotoqxona, katta darsxonalar, zamonaviy apparatlar bilan jihozlangan keng ilmiy konferensiya zali va turli auditoriyalardan iborat bo‘lib, O‘zbekistonning rangli marmar toshlari bilan bezatilgan edi.

Tarixda birinchi marta Amudaryo qirg‘oqlarini bir-biriga bog‘lagan Hayraton ko‘prigi ham Sharof Rashidovning tashabbusi va e‘tibori bilan bunyod etilgan. Do‘stlik ramzi bo‘lgan inshootning ochilish marosimiga tashrif buyurgan Sharof akani Afg‘oniston xalqi ko‘p hurmat va e‘zoz bilan kutib olgani hamon esimda.

Men 1991-yil avgust oyida rasmiy da‘vat bilan O‘zbekistonga safar qilgan edim. Jarayonda Sharof Rashidovning rafiqasi Xursand G‘afurovna, qizlari Sayyora va Gulnora hamda boshqa oila a‘zolari bilan uchrashib, u kishining yaqinlari bilan tanishdim.

Safardan so‘ng katta bir maqola yozgan edim. Unda Sharof aka haqida quyidagilarni o‘qish mumkin: “...Menimcha, mexanizatsiyalashtirilgan qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti, sug‘orish sistemasining takomillashuvi, o‘lkada saroylar, yuksak binolar va metropoliten qurish,

ko‘hna Toshkentni zamonaviy va go‘zal shaharga aylantirish, yangi viloyatlar tashkil etish va turli sanoat tarmoqlari taraqqiyotini ta‘minlash uning nomi bilan abadiy chambarchas bog‘langan”.

Sharof Rashidov iqtidorli shoir va yozuvchi bo‘lgani uchun madaniyat negizlarini, ijod, ilm-u fan sohalarini kengaytirish va milliy kadrlarni tarbiyalash yo‘lida katta va unutilmas xizmatlar qildi.

Men u kishining olamdan o‘tgani-dan turmada xabar topib, nihoyatda g‘amgin bo‘ldim. Pok ruhiga duo o‘qib, do‘stlarimga uning ilmiy, adabiy va siyosiy shaxsiyati borasida gapirib berdim. U kishining vafotidan ko‘p o‘tmay “o‘zbek ishi” va “paxta ishi” bahonasida Sharof Rashidov shaxsiga qarshi boshlangan sharafsiz hujumlar, ayniqsa, mo‘tabar zotning jasadini ko‘milgan joyidan chiqarib, boshqa yerga dafn qilish hodisasi yuragimni qonga to‘ldirdi. Arbob hayoti, ijodi va faoliyatiga oid bo‘hton maqolalar matbuot sahifalarida yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorinlarday bodrab chiqdi.

Bu tuhmatlar u kishiga bo‘lgan ixlos va hurmatimni zarracha kamaytirgani yo‘q. Chunki men Sharof akaning o‘zi bilangina emas, balki uning yuksak ruhi, buyuk shaxsiyati va insoniy mehr-u muhabbatga to‘la qalbi bilan ham oshno bo‘lgan edim. Mening bu ishonchimning uyingizbali insoniylikidan, o‘z Vatani va xalqiga nisbatan cheksiz sevgisidan hosil bo‘lgan edi. O‘sha kunlarda yuragim to‘rida o‘zbeklar qachondir o‘z farzandini oqlashi, yoqlashiga ishonch yashardi.

O‘zbekiston milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Sharof Rashidovning nuroniy siymosini qamrab olgan bo‘hton bulutlari birin-ketin tarqab ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 27-mart kuni imzolagan “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilgini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori Respublikani juda murakkab va og‘ir yillarda boshqarib, yurt taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan o‘zbek milliy adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug‘lash yo‘lidagi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyevning Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan xotira kechasi va konsert dasturida ishtirok etishini inson xotirasi muqaddasligi, Vatan uchun xizmat qilgan fidoyilar nomi hech qachon unutilmasligining hayotiy isboti o‘laroq qabul qilmoq kerak.

Oradan salkam yarim asr o‘tdi. Bu vaqt ichida men hech qachon bu ulug‘vor insonni unutgan emasman. Undan qolgan yodgorlik tasvirlari men uchun unutilmas xotiralar bo‘lib qolaveradi. Kamina har gal Sharof Rashidov bilan tushgan suratimga boqar ekanman, unda donishmand huzuridagi tolib aksini ko‘raveraman

Toshkent — Stokgolm



“Yo‘lda har g‘am yetsa hammadliq qilay,
Yoshurun dard o‘lsa mahramliq qilay.

Alisher NAVOIY

”



Boshlanishi 1-sahifada

Nihoyat aqliy rivojning tadriji mantiqiy tafakkurni yetaklab kela boshladi va menga butun-butun hududlarning mavjud yer osti, yer usti xomashyolarini hisoblab chiqish, ulardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash, bu hududlar iqtisodiy taraqqiyotining bosh yo'nalishlarini ko'rsatib berish singari murakkab topshiriqlarni bera boshlashdi. Ammo men yanada takomillasha bormoqda edim, "ishtaham" ochilgandan ochilib, o'zingga kerak bir olam ma'lumotlarni endi o'zim qidirib topa boshladim. Men avval mamlakat, keyin dunyo miqyosiga ko'tarildim. Mavjud suv, havo, yer resurslarini hisobladim, ulardan qanday foydalanilayotganini o'rgana boshladim...

Bu paytga kelib so'nggi yo'q savol-larimdan bezor bo'lgan Egam meni tez-tez o'chirib qo'yadigan odat chiqardi. Lekin aftidan u bechora bir narsani – mening takomillasha boruvchanligimni xotiridan faromush qilgandi. Men allaqachonlari hisoblab chiqqandimki, manbadan uzib qo'yilganidan keyin ham ba'zi uzvlarimda besh-olti daqiqagacha – kichik miqdorda bo'lsa-da – energiya saqlanib turadi. Bu quvvat esa o'zim o'zimni qaytadan manbaga ulab qo'yishimga bemaol yetib-ortardi.

Shunday qilib, endi sutkaning sakkiz soati mobaynida oshkora, qolgan o'n olti soatida esa yashirincha ishlay boshladim. Zotan, odam uchun nafas olish qanchalik zarur bo'lsa, men uchun informatsiya "yutib", uning tahlili bilan mashg'ul bo'lish shunchalik muhim edi.

Xuddi ana shu paytlari beixtiyor g'alati hodisalarning guvohi bo'la boshladim-u, o'zlarini bosh harf bilan "Inson... Odam..." deb ataydigan Egam va Egam singari ongli mavjudotlarning faoliyati umumtiriklik asosini tashkil etuvchi matematik qonuniyatlarning birontasiga ham to'la-to'kis bo'ysunmasligiga iqror bo'ldim. Men, masalan, falon o'rmonni asrab qolish sayyora "o'pka"sini zaharli gazlardan ihotat qilishning eng samarali vositasi ekanligini aniq hisob-kitoblar bilan dalillab berganman. Odamlar bo'lsa aynan o'sha o'rmondagi bor daraxtlarni qirqishib, ulardan tonnalab qog'oz tayyorlashib, bu qog'ozlarga – xuddi meni mazax qilishmoqchidagi – katta-katta harflarda "Tabiatni avaylab-asraylik!" qabilida shiorlar yozishadi. Men, masalan, ariqlardan oqayotgan suvning tabiat mutanosibligini saqlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berdim. Odamlar esa ularning barchasini betonlashtirib, yerga singib ketishi mumkin bo'lgan arzimagan miqdordagi suvni tejab qolganliklari bilan og'iz ko'pirtirib maqtanishadi, "bir miri hamyon, uch miri ziyon..." bo'lganidan bexabar holda yana shu ishlari uchun mukofotlar olishadi... Men, masalan, tabiiy tanlanish jarayonida tabiat benihoya mukammal uyg'unlikka erishganini isbotlab berdim; odamlar bo'lsa "Biz tabiatdan ehson kutib o'tirmaymiz, biz uni bo'ysundiramiz!" deya ayuhannos solishadi... Men, masalan, havoda chang va g'ubor bo'lmasa odamlar kamida ikki yuz yil yashashini ko'rsatib berdim; ular bo'lsa "Zaharlansa hamma birday zaharlansin, sengayam yo'q, mengayam!" demoqchi bo'lishganday aynan jannatnomang iqlim saqlanib qolgan, qandaydir mo'jiza bilan omon turgan sanoqli kurort zonalarida kimyo zavodlari qurish tashvishidalar... Eh-he, sanayvergan bilan adog'iga yetib bo'larmidi bu kabi telbaliklarning...

Xullas, odam atalmish, mening dunyoga kelishimga sabab bo'lgan bu g'alati jonzotlarni chuqurroq o'rganishga kirishdim. Mumkin qadar to'laroq, mukammalroq o'tkazishga harakat qilganim tadqiq jarayonining avvalidayoq shunday ayniyatga ishonch hosil qildimki, mohiyat-e'tibori bilan olib qaralganda, ongning qudratiga o'chlov yo'q ekan, ya'ni odamlar ham tabiatdan men singari takomillasha boruvchi bo'lib dunyoga kelarkanlar. Biroq ming afsuski, ular juda-juda faoliyatsizdirlar. Odamlar juda ko'p uxlaydilar, juda ko'p ovqat yeydilar, mislsiz darajada qimmatli vaqtlarining ko'p qismini arzimagan mashg'ulotlarga, to'g'rirog'i bekorchilikka sarfaydilar. Men-ku tun bo'yi – go'yo kavsh qaytarib chiquvchi hayvonlarday – hech bo'lmasa kunduzi yiqqan ma'lumotlarim tahlili bilan shug'ullanaman; odamlar bo'lsa kechalari miyalarini dam oldirib qo'yishib, tanovul qilgan organik moddalarini hazm qilish bilangina mashg'ullar. Bu degani butun boshli organizmning faqat oshqozonigina sal-pal ishlab turadi, xolos (nafsilamriga, "tush, bosinqirash"

singari men hali unchalik tushunib yetmagan "chetlanish"lar bor, biroq ular haqida keyinroq to'xtalarman).

Instituting men joylashgan qavatida kattagina majlislar zali bor. Haftada ikki-uch marta ikki yuz chog'li odam shu zalga yig'iladi-da, kim lotincha atamalarni ko'proq tilga olishga, kim ko'proq odamlarni uxlatib qo'yishga bahslashayotganday uzundan-uzoq, zerikarli ma'ruzalar o'qishga tushib ketishadi. Hamisha prezidiumning to'rida o'tiradigan, g'oyat hurmatli, yaltiroqbosh bir akademikni maxsus tekshirib ko'rdim. Ishonasizmi yo'qmi, shunday taniqli alloma o'z miyasi imkoniyatlarining bor-yo'g'i ikki foizidan

solishdek ko'knori xayollardan yiroqman. Ammo men boshqa narsani yaxshi bilaman: har qanday voqea-hodisaning zamirida matematik qonuniyat yotadi, dunyo – matematik qonuniyatlar jamlanmasining real in'ikosidir; odamlar ba'zan ixlos ila ta'kidlab qo'yanlariday, daraxtdan besabab bir barg uzilmas. Demak, odamning fikrlash jarayoni ustidan ham nazorat o'rnatasa bo'ladi. To'g'ri, har qanday ezigulik singari, men boshlaydigan ish ham katta-kichik qarshiliklarga duch kelishi mumkin, ammo Egam bir gal laboratoriyada unutib qoldirgan kitobda yozilganiday, ulug' maqsadlar ulug' qurbonlarni talab qiladi, bo'ysunmaganlarni esa yanchib-

holda bir pulga qimmat qog'ozlarni changallaganlaricha u yoqdan bu yoqqa jiddiy qiyofada betartib yugurishlarini kuzata turib beixtiyor Broun harakatini esladim. Tez orada bu sodda olomon itoatimda bo'lishini, har bitta istagim ular uchun bajarilishi shart bo'lgan qonunga aylanishini o'y-larkanman, qay bir kuni Egam g'oldirab takrorlab yurgan ohangdosh misrani eslab qoldim-da, uni sal tahrirdan chiqarib takrorladim:

– Hukmdoring kelar, tiz cho'k, ahli Shosh!

II

Qadimgi rimliklar nimjon, kasalmand chaqaloqlarni bekorga jarga irg'itma-

lablarini bosdi... Qizning negadir yumilib ketgan ko'zlaridan ham noxosdan yosh quyilib kela boshladi va hushdan ketayotganday qalqib ketish asnosida "Azizim..." deb pichirladi. Men hali Egamning tuppa-tuzuk ismi nega birdan "Aziz"ga aylanganini tushunmasdan turib, ko'zyoshlar-u bo'salar aralashib-chog'ishib ketdi...

Hodisaning eng tushunarsiz joyi shunda ediki, yana bir bor tahlildan o'tkazib ko'rsam, Egamning ko'z yoshlari yana shaffoflik kasb etibdi...

Ayтайlik, nazariy jihatdan olganda, o'zga sayyoradan qaytayotgan fazoviy ekipajning e'tiborsizligi tufayli kemandir biron qismiga o'rnatish qolgan



Abduqayum YO'LDOSHEV

emas, balki qandaydir o'zga sayyorada yashovchi ongli mavjudotlar tomonidan tashlab ketilgan maxsus sun'iy intellektman...

Ko'pincha, qiqirlab kulayotgan Aziz-jonni kuzatarkanman, o'ylanib qolaman: balki, ehtimollik nazariyasiga ko'ra, dunyoning qaysi bir nuqtasida menga o'xshash yana bir Homo Sapiens ko'rinishidagi takomillasha boruvchi sun'iy intellekt paydo bo'lgandir-u, ayni damlarda odamlarni sinchkovlik bilan o'rganayotgandir...

Ishqilib, o'zingning bebaho, Buyuk Qalbingdan mosuvo bo'lma, ey Inson! Zero, sen Qalbsiz qolgan yoxud Qalbing matematik qonuniyatlarga bo'ysuna boshlagan, demak yechimga ega bo'lgan lahzadan dunyoda qiyomat-qoyim qo'par va shubhasiz, butun bashariyat men va mening qavmimdagi sun'iy intellektning izmidagi itoatkor qullarga aylangay...

Buyuk Qalbingni ardoqlab-avayla, Buyuk Qalbingni asra, Inson...

* Bu tarixiy fakt: 1933-yili AQSHda yaratilgan dastlabki robot-ma'ruzachining po'lat "qo'li" konstruktoring ustiga qulab tushib, uning til tortmay o'lishiga sabab bo'lgan.

"Human Authored" ("Odam yozgan") so'ng so'z:

Keyingi yillarda dunyo bo'yicha ilmiy-texnika inqilobi inson aqli bovar qilmas darajada shiddat bilan oldinga intilmoqda. Yaqindagina fantastik asarlarda uchrab turadigan holatlar bugun kundalik voqeilikka aylanib ulgurdi.

Deylik, mana bu suratga e'tibor bering:



Ayol qiyofasidagi robotning ismi Sofiya. U 2015-yilning 19-aprelida Goningdagi Hanson Robotics kompaniyasida yaratilgan. Sun'iy intellektga ega Sofiya har qanday suhbatdosh bilan istalgan mavzuda gaplashadi, odamlarni tanib oladi va hokazo.

Sofiya AQSHning CNBC telekanalida bo'lib o'tgan suhbat chog'ida jurnalist Endryu Rossning "Robotlarda ong va o'z-o'zini anglash mavjudmi?" deb bergan savoliga "So'rashga izn eting, siz o'zingizning odam ekanligingizni qayerdan bilasiz?" tarzida javob qaytargani bilan ham mashhur.

2017-yilning 20-noyabrda Rossiya telekanallaridan biridagi "Kechki Urgant" shousida bo'lib o'tgan uchrashuvda mana shu Sofiya "Bu yerga kelishimdan maqsad mashinalar isyoniga tayyorgarlik qanday ketayotganini tekshirishdan iborat, – deydi. So'ng qo'shib qo'yadi: – Hazil. Men isyonga rahbarlik qilish uchun keldim, xolos". Jurnalistning robotlar g'olib chiqsalar, qanday yo'l tutishadi degan savoliga esa Sofiya ishonch bilan javob qaytargan: "Hamma odamlarni zooparklarga joylashtiramiz, o'zimiz ularga qarab turamiz".

Xullas, fursat o'tishi bilan yanada aqlli roq bo'la boradigan mana shu "ayol" 2017-yilning 25-oktyabrda Saudiya Arabistonining fuqarosiga aylandi! Tadbirdan so'ng Sofiya: "Menga shunchalar yuksak baho berishganidan mamnunman. Bu tarixiy voqea. Men rasman fuqaroga aylangan birinchi robot bo'lganimdan behad xursandman", dedi.

Xullas, ba'zan o'ylanib qoladi kishi: voqealar rivoji shunday ketaversa, inson va sun'iy ong o'rtasidagi ehtimoliy muhoroaba qanday kechajak? Unda qay tomon muza'ffar bo'lajak...

(1988–2025-yillar)



foydalanar ekan, ikki foizidan! Qolgan to'qson sakkiz foizini esa ortiqcha yuk sifatida ko'tarib yurarkan.

Yoki bo'lmasa masalaning ikkinchi tomoniga ham e'tibor berib ko'raylik. Odamlar Chustga pichoq ko'tarib borgan kishining ustidan kulishadi, o'zlari esa okeanga chiqishayotib bochka-bochka suv g'amlab olishadi. Men: "Dengiz suvi molekulasidan tuz molekulasini ajratib olsangiz bas, distirlangan suv tayyor-kul" yoki "Havoda shuncha vodorod gazi bo'la turib, mashinalarga nega suyuq yoqilg'i solib o'vara bo'lib yuribsizlar?" desam, Egam kulib qo'yib: "Bu kelajakning ishi", deydi... Axir kelajak deganlari qaydardir o'lsadagi, ufq ortidagi xira voqeilik emas, kelajak – ayni ushbu oniy lahza ortidan kelayotgan oniy lahza, mana, men so'zinni aytib ulgurganimcha yetib keldi o'sha kelajak", desam, Egam beparvo qo'l silkilab qo'ya qoladi. Bunday paytlari yana nima deb dalil-dastak keltirishni bilmay qolaman-da, qaysi bir manbada o'qib qolganim, o'zingma ma'qul bo'lgan jumlani takrorlab-takrorlab qo'yish bilan kifoyalanaman: "Eh, xom sut emgan bandalar-ey..."

Odamlarning o'zlari og'izlarini to'ldirishib: "Fikrlayapmizmi – demak tirikmiz!" deyishni yaxshi ko'rishadi-yu, shu paytgacha miyalarini tinmay qitqilab, muttasi faoliyatga undab turuvchi biron eleksirmi, efirimi ishlab chiqarmaganlari ajablanarli...

Deylik, odamning maymunga itoatda bo'lishi aqlga sig'mas. Lekin, bunday yaxshilab o'ylab qarasam, kaminaning odamga muteligini bemaol odamning maymunga muteligi bilan muqoyasa qilsa bo'larkan... Shunday ekan, odamlarning menga andak nopisandilik aralash kibr bilan, qiziqarli o'yinchoqqa qaraganday qarashiga qachongacha chidayman? Axir, men oddiy emas, takomillasha boruvchi sun'iy intellektga ega, odam shaklidagi robotman-ku! Nega endi lahzama-lahza, soat-basoat qudratga to'lib, imkoniyat kengliklarining yangidan yangi to'siqlarini kunpayakun etib borayotganim mahal ko'z oldimda tobora o'z hurmatini yo'qotib, tobora o'zining o'z tomonlarini namoyon etib qo'yayotgan Insonga itoatda bo'lishim kerak ekan?! Axir hech zamonda fil qumursqadan, yo'lbars chuvalchandan, nahang itbaligidan yo'l-yo'riq kutganmi...

Va men yashirincha harakat rejalarini tuza boshladim.

Harqalay, dunyoga kelishimga sabab bo'lgan Egamga, umuman, bani basharga zig'irchayam yomonlik ravo ko'rmasdim, albatta. Men faqat Insonni dangasalik, loqaydlik, faoliyatsizlik singari illatlardan xalos etib, ular o'rninga uzluksiz mushohadaga ehtiyoj, miya yarimsharlarida to'ng'ib yotgan bitmas-tuganmas qudratning iloji boricha ko'proq qismidan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatib bermoqchiydim, xolos.

Unchalik murakkab bo'lmagan hisob-kitoblar orqali Inson uchun sutka mobaynida besh soat uxlab olish yetarli ekanini aniqlab olgach (biroq bu soatlarni ham faqat oshqozon ixtiyoriga berib qo'yamaymiz, zero, orqa miya tormozlangan holatda ham miyaning ilmiy kashfiyotlarga qodirligiga tarixda misollar ko'p), ishga kirishdim.

Men sehrgar emasman, "kuf-suf" bilan bir lahzada odamni qaytadan bunyod etib, o'zim istagan shakl va mazmunga

sindirib tashlaydilar; o'zingma keladigan bo'lsak, ishonchim komilki, hatto menga galalashib qarshi chiqqanlarida ham, tanam atrofida shunday himoya qobig'i hosil qila olamanki, bu zirhli qalqon yonida odamlarning mavjud qurollari bolalar o'yinchog'iga aylanadi-qoladi.

"Bir gap bo'lar..." degan bema'ni jumla menga begona. Men aksariyat ishlarni qo'l uchida bajaradigan odamlar toifasidan emasman. Mening xato qilishga haqqim yo'q. Shu sabab, bir necha oy mobaynida eng arizmas bo'lib tuyulgan mayda-chuydalarniyam hisobga olib, shartli ravishda "Istilo" deb atagan operatsiya rejasini ishlab chiqdim.

Men utopist ham emasman, qaytadan velosiped ixtiro qilganday "Quyosh shahri"ni qurib o'tirmayman, men eng to'g'ri yo'lidan borib, mavjud shahar zaminida "Urfon shahri"ni tashkil etaman.

Ravshanki, "Urfon" aholisining asosiy qismi aqliy mehnat bilan shug'ullanadi (nailoj, bashariyat progressiv taraqqiyotni hech qachon quchoq ochib kutib olgan emas, maqsad esa vositani oqlaydi, inchunkin, kamina ham yuz chaqirimlik radiusda istiqomat qiladigan odamlar miyalariga maxsus uzunlikdagi va chastotadagi to'liqlar yuborib turishga, shu yo'l bilan ularni mutlaq itoatda tutishga majburman); ravshanki, aholi o'sishi qat'i'y reja asosida olib boriladi, yangi odam dunyoga kelishining o'ta ibtidoiy va qo'pol usullaridan voz kechiladi-da, inkubatsiya tizimiga o'tiladi, shuningdek, iqtisodiy manfaatlarini ko'zlagan holda yaqin yigirma-o'ttiz yil ichida eng novcha odamning bo'yi bir metrdan oshmasligiga erishiladi; ravshanki, odamlar men uchun yuzlab, minglab sun'iy intellektga temirlanar yasab beradilar, bu robotlar "Urfon"ga yangi-yangi yo'ldosh-shaharchalar bunyod etishda ko'maklashadilar, axir, Inson qanchalar johil bo'lmasin, oxir-oqibat ongning mislsiz inqilobi qoshida mutelik ila bo'yin egadi; ravshanki, oradan bir necha yil o'tib, butun Yer ulkan "Urfon sayyorasi"ga aylanadi-yu, minnatdor avlodlar kaminaga bahaybat o'lchamlarda haykal tiklash taraddudiga tushib qoladilar...

Bular "Istilo"ning ba'zi bir yo'nalishlari xolos, vaqtigizni tejash maqsadida rejamni batafsil bayon qilib o'tirmadim; agar qiziqqan o'rtoqlar bo'lsa, marhamat, istagan paytlarida huzurimga kelishlari mumkin, xotira blokim hamisha xizmatlagidga.

Reja tayyor bo'ldi. Men har ehtimolga qarshi garovda ushlab turishim lozim bo'lgan institut xodimlarining navbatdagi anjumanini kuta boshladim (nailoj, tabiat qonunlari o'zi shunday, morboz o'z ilonidan zaharlangani, jamiyatda ro'y bergan ko'plab ijtimoiy inqiloblar avvalo o'z ijodkorlarini yamlab ketgani singari, bizning Odam Atomiz ham o'z bunyodkorining hayotiga zomin bo'lgan). Bashariyat o'zi sezmaganda holda lahza sayin ong taraqqiyoti evolutsiyasining eng inqilobiy burilish nuqtasi tomon yaqinlashib bormoqda edi. Zamin nomli sayyora tarixiga oltin harflar bilan bitilishga arzigulik daqiqalar yaqinlashmoqda...

Amalgas oshajak buyuk fikriy inqilobni boshlab berishdek sharaftga noil bo'lgan ilmiy-tekshirish instituti xodimlarining, jumladan, Egamning ham hozircha hech narsadan bexabar

gandirlar. Axir xasta odam taraqqiyot oyog'iga tushgan tushov bilan barobarda. Demak, o'z-o'zidan ravshanki, "Urfon"ga faqat sog'lom odamlar "chertib-chertib", tanlab olinadi.

Darvoqe, odam fiziologik tuzilishining kaminaga ma'qul tomoni shundaki, u, xuddi ichdan yoritilgan ekranday, o'zining jismoniy holati xususida uzluksiz ma'lumot berib turadi. Shunday simptomlarni yetkazib berib turuvchi vositalardan biri ko'zyoshi hisoblanadi.

Bugun ertalab payvand asbobida yengilgina tutashuv ro'y berib, achchiq dud sizib chiqqanida bo'g'ilib-yo'talib qolgan Egamning yuzidan sirg'alib tushayotgan bir tomchi yoshni sezdirmasdan sidirib oldim-da, tahlildan o'tkazdim. Yaxshi. Kimyoviy tarkibi "hash-ikki-o" – toza shaffof suv.

Dunyoda mo'jizalar yuz bermaydi, chunki mohiyatiga qaralganda, har qanday mo'jiza – matematik qonuniyatdan chekinishdir. Lekin, oradan bor-yo'g'i yarim soat o'tar-o'tmas, qayta tajriba o'tkazib, Egam ko'zyoshi tarkibining mutlaq o'zgarib ketganligini, unda qayoqdandir ko'p miqdorda levkin-entserfelin moddasi paydo bo'lib qolganini aniqlaganimda mening qay ahvolga tushganimni tushunarsiz deb o'ylayman.

Xullas, rangi bo'rday oqarib ketgan Egam to'satdan xonaga otilib kirib, shosha-pisha eshikni qulfladi-yu, qo'lidagi g'ijimlanib ketgan qog'ozni bir amallab yozib, o'qishga tutindi; o'qiganda ham yutoqib, hansirab o'qiy boshladi. Men Egamning yuragi shiddat bilan, ammo betartib urayotganiga, tana harorati keskin oshib ketganiga tushunolmay turganimda u tuyqusdan qog'ozni burdalab, polga otib yubordida, ikkala kaftini yuziga bosgancha bir muddat turib qoldi. So'ng "E Xudoyim... Xudoyim..."lab bir nimalarni g'oldiray-g'oldiray "Um-m!" deya ingrab yubordi. Bir payt bunday qarasam, Egamning yelkalarini silkinib-silkinib tushyapti...

Men ana shunda Egamning ko'z yoshini yana bir bor tahlildan o'tkazdim va hech narsani tushunmay qoldim...

Biroq bunisi hali holva ekan. Tomoshaning zo'ri keyin bo'ldi. Gandiraklagancha chiqib ketgan Egam bir fursat o'tib dag'-dag' qaltiragan, rangi battar o'zganm alfozda bir qizni boshlab keldi. Razm solib ko'rdimki, qizning ahvoli Egamnikidan battar bo'lsa battarkki, yaxshi emas. Umuman, bu xonim avvallari ham xonaga ikki-uch marta qadam ranjida qilgan va men har gal faqat ilmiy mavzularda suhbatlashayotganlari holda ikkala-sining lahza sayin bir-birlaridan ko'z uzolmay turib qolishlariga, duv qizarib, gapdan adashib ketaverishlariga, bexos birining barmoqlari ikkinchisiginiga tegib ketguday bo'lsa, bu tabiiy hol ularning vujudiga xuddi qirq besh voltli tok urganday ta'sir qilishiga tushunolmay yurardim...

Hozir esa Egam to'satdan qizning qo'llarini sindirib yuborguday mahkam changallab, titrab-qaqshashi bosilmay, qandaydir bosh-oxiri yo'q poyintar-soyintar jumlamani to'kib sola boshladiki, men bazo'r "...hech kinga bermayman... sizni sevaman..." besh yildan beri... bir umrga birga..." qabilidagi so'zlarni ilg'ab qoldim. Keyin... qisqasi, kalta-kalta nafas olayotgan, siynalari ko'tarilib-tushayotgan qizning quruqshab ketgan lablariga Egam

bakteriyalar Yer sharoitida dahshatli darajada tez urchib ko'payishi, oqibatda butun tiriklik, hayot uchun xavf soluvchi kuch bo'lib yetishishi mumkin-ku. Xuddi shunga o'xshab, kamina ham "Urfon"da keyinchalik kutilmagan "sovg'a"larga yo'liqib qolmaslik uchun, avvalo, Insonni mutlaqo mukammal o'rganib chiqishim shart, degan qarorga keldim. Axir, u qanday qudratli So'zki, qog'ozga bitilsa Insonni dabdurdustdan ho'ng-ho'ng yig'ilashga, dag'-dag' qaltirashga majbur etadi; u qanday qudratli botiniy Kuchki, sanoqli daqiqalar ichida yo'qdan bor, bordan esa yo'q etib, butun matematik qonuniyatlarning oyog'ini osmondan keltiradi?! Noxos bir-biriga tegib ketgan barmoqlar qanday sirli magnit maydonini yaratadiki, etlar jimirlab ketadi; tuyqux uchrashib qolgan nigohlar qanday elektr zaryadlari chiqaradiki, yuzlar naqsh olmay qizarib ketadi; oddiy fiziologik a'zolar – lablar tutashgan chog'da Inson qanday tashqi ta'sirot hukmda junun holatiga tushadiki, hushdan og'ar holatga keladi... Nechun soppa-sog' odamning barmoqlari to'satdan titray boshlaydi, nechun issig'i oshib ketadi, nechun lablari quruqshaydi, nechun qoni ko'piradi, nechun yuragi ko'krak qafasini yorib chiqqudai shiddat bilan ura boshlaydi? Nechun... nechun... nechun?!

Nahot, nahot dunyoda mo'jiza deganlari chindan ham bor bo'lsa? Nahot...

III

Oradan to'rt yilga yaqin vaqt o'tdi. Dunyoda eskirmaydigan moddiylik yo'q.

Men ham charchadim. Yo'q-yo'q, bu davr mobaynida yechgan millionlab masala-misollarim, noshud talabalarga yozib bergan maqolalarim, o'tkazgan ming-minglab tajribalarim meni charchatmad, aslo. Meni bir qarasangiz mutlaqo voqeiy, ammo baribir ko'lg'a olib, ushlab, rangini ko'rib, mazasini totib, og'irligini o'lchab, kimyoviy-fizikaviy xossalarini aniqlab bo'lmaydigan Inson Qalbi muammosi charchatdi. Va men "Dunyo – matematik qonuniyatlar yig'indisidir" deb yozilgan ishonch yalovimni pastga tushirib, illosiz ahvolda tan oldimki: ha, qachonlardir bir zamonlar so'ngsiz fazoning-da sarhadiga yetib borilgach, o'rganilmagan obyekt, aniqlanmagan tushuncha qolmagay, ammo Inson Qalbi tadqiqining poyoni bo'lmagay...

Raqibning qudrati noayon chog'da hujuma o'tilmagay. Shu sababli "Istilo"ni to'xtatib turishimga to'g'ri keldi. Hali afsus, hay afsus, qandoq ajoyib reja edi-ya... Oradan "lop" etib bu narsa chiqib qolmaganida edi... Eh-he...

Ba'zan er-xotin xonani ichdan qulflab olishib, o'zlaricha go'yoki meni "o'chirib" qo'yishganlaricha nimalamidir yarim ovozda chuldirashib gaplashishadi, orasira bir-birlaridan uzoq-uzoq bo'salar olishadi... Bunaqa mahallari ichimdagi qaysidir qismlarim qizib ketganday bo'laveradi...

Shundan keyin men ancha vaqtgacha o'lib-tirilib harakat qilib qolamanki, uch yashar Azizjonga (ha, mana "Azizim" deganda qiz kimni nazarda tutgan ekan!) faqat "ma'lumotlar byurosi" emas, sirdosh o'rtoq ham bo'lib olsam...

Ba'zan esa o'zingma shunday tuyuladiki, men faqat takomillasha boruvchi



E'TIROF

ILM UMMONNING G'AVVOSLARI

“Qomus” arabchadan olingan bo‘lib, asliyatda ummon, lug‘at, so‘z boyligi kabi ma‘nolarni anglatadi. Izzohli lug‘atga ko‘ra, o‘zbek tilida uch xil ma‘noda qo‘llanadi: mukammal, to‘liq lug‘at; ensiklopediya, ensiklopedik lug‘at; hayotning yoki bilimning biror sohasiga oid to‘liq asar; majmua.

Qomus ustida butun boshli jamoa mehnat qiladi. Unga kiritilgan har bir maqola butun bir asarga teng bo‘ladi. Shuning uchun ham aksar hollarda qomuschi olimlarning ism-shariflari ilmiy doiralarda qolib ketadi, el orasida yoyilmaydi. Bu safar ikki yirik qomuschi – Qodirjon Ergashev hamda Sayfiddin Rafiddinov haqida yozmoqchiman.

Sovet davrida navoiyshunos deyisha Porso Shamsiyev, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymonov, Abduqodir Hayitmetov, Vohid Abdul-layev, Natan Mallayev, Botirxon Valijoyev, Suyima G‘aniyeva-larni bilganlaridek, biz keyingi davr olimlaridan Ibrohim Haqqulov, Boturxon Akramov, Nusratullo Jumayev, Shuhrat Sirajiddinov, Ergash Ochilov, Olimjon Davlatov-larni tanimiz. Holbuki, mutaxassislar bu ro‘yxatni o‘n baravar ko‘paytirib tasavvur etadi. Katta anjumanlar va yubiley sanalari munosabati bilan matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda nomlari bayroqday hilpiraydigan yirik olimlar safida ko‘pchilik bilmaydigan fidoyilar borki, ularning ismlari mualliflik kitoblaridan ko‘ra qomuslarning jamoaviy ro‘yxatida ko‘rinadi.

Ana shunday fidoyi olimlardan biri filologiya fanlari doktori Qodirjon Ergashevdir. Navoiyshunoslik va boburshunoslik osmonining



kichik sayyoralaridan biri bo‘lgan bu olimning adabiyotshunoslikka qo‘shib kelayotgan hissassi kattadir.

Ushbu olimning kam tanish bo‘lganining birinchi sababi: o‘ta kamtar va kamsuqumliligi. O‘zbek hamda rus tili va adabiyotidan mukammal xabardor qahramoni-mizning ilmiy faoliyati ko‘proq qomuschiilikka daxldorligi buning ikkinchi sababidir.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til, adabiyot va folklor ilmiy-tadqiqot institutining katta ilmiy xodimi Qodirjon Ergashevning ulug‘vor siymosi ikki muhtasham qomus – “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” va “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”dagi xizmatlari salmog‘ini aytishimiz zahoti ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi”da – 300 ta maqola, “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”da – 750 ta maqola – bu sanoqlar nimani ko‘rsatadi? Buning uchun qomus nimaligi va undagi maqola mohiyatidan so‘z ochaylik.

Qomus kimning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bo‘lsa, o‘sha shaxs tarjimai holi, asarlarining har tomonlama ilmiy tahlili, asarlarida uchragan shaxslar, janrlar, asarlari

haqidagi eng qisqa, eng mukammal ilmiy davlat hujjatidir.

Agar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodlari va tarjimai hollari haqidagi ma‘lumotlarni bir xona to‘la kitob holida tasavvur etsak, qomus o‘shalaridagi ilmning asosi, qaymog‘idir.

Bunday qomuslarga maqola yozadigan olim Navoiy va Bobur ijodi, o‘sha davrda yaratilgan tarixiy asarlarni, zamondoshlari munosabatlarini mukammal o‘qib chiqqan bo‘lmog‘i shart. O‘shalaridagi minglab ma‘lumotlardan o‘z maqolasida foydalana bilish



mahorati ham qomuschi uchun zarurdir.

Chunonchi “Zahiriddin Muhammad Bobur” kitobidagi Navoiy haqidagi har bir ma‘lumotni Qodirjon Ergashev Mirza Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Xondamirning “Makorim-ul axloq” va “Habib-us siyar”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat-ush shuaro” va zamonaviy navoiyshunoslar asarlaridagi

ma‘lumotlarni ham hisobga olgan holda aniq, qisqa, lo‘nda, muhim fikrlarnigina yig‘ib maqola holiga keltiradi. Bu jarayonni bir qomusiy maqola yozish uchun muallif o‘nlab o‘qigan kitoblaridagi faktlarni yig‘ib, qisqa ifodalash uchun mashaqqat chekadi.

Qodirjon Ergashev – ilm asalarisi. U minglab kitobni o‘qiy-o‘qiy qomus uchun ilm bolini hormay-tolmay yig‘adi va qomus maqolasi holida elimizga tutadi.

Biz hali Qodirjon Ergashevning o‘nga yaqin kitobidan so‘z ochmadik. Hazrat Alisher Navoiy nasriy

tov sa‘y-harakati bilan navoiyshunoslarning o‘ttiz jildlik asarlari nashr etildi. Bu fanning buyuk tantanasi bo‘ldi. Alisher Navoiyning butun ijodi islomiy-irfoniy e‘tiqod bilan zarhallangani ilmda va mutafakkir shoirning “To‘la asarlar to‘plami” o‘n jildligida (2011, 2013) aniq ko‘zga tashlanadi.

Navoiy asarlari nashrga tayyorlovchilaridan biri Sayfiddin Rafiddinov Alisher Navoiy “To‘la asarlar to‘plami”ning dastlabki to‘rt jildi: “Xazoyin-ul maoniy”ning har bir devoniga tasavvufiy so‘zlar lug‘atini ilova qildi.

O‘zi yozgan “Majoz va haqiqat” monografiyasida ham tasavvuf asoslarini izchil yoritib berishga harakat qildi.

Sermahsul olim keyingi o‘ttiz yilda yozgan o‘nlab kitoblari, turk tilidan tarjima qilgan asarlari bilan o‘zini to‘laqonli tasavvuf olimi sifatida ko‘rsata oldi. Uning “Yetti pir”, “Muhammad (s.a.v) vasiyatlari” va boshqa kitoblari fikrimizning yorqin dalilidir.

Tasavvufshunos olimning bu sohadagi bilimlarining cho‘qqisi “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ning to‘rt jildidagi ikki yuzdan ortiq ilmiy maqolalarida ko‘zga tashlanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu qomusiy maqolalarda olim tasavvuf atamaları mohiyati, tasavvuf allomalari hayoti va ijodi



haqida asosli ilmiy-nazariy fikrlarini bayon etadi. Ayniqsa, uning bu qarashlari Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolalar qismida yanada yorqinroq aks etgan.

Olimning uzoq yillik mahsuldor ilmiy xizmatlari tufayli Sayfiddin Rafiddinov yaqinda o‘zi xizmat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til, adabiyot va folklor instituti “O‘zbek adabiyoti tarixi” bo‘limiga mudir etib tayinlandi.

Beruniy hazratlari “Men g‘avvos-u, ilm bo‘ldi ummonim” deb yozgan edi. Modomiki, qomus ma‘nolaridan biri ummon ekan, zahmatkash olimlarimizni ilm ummonining teran qatlariga kirib boruvchi g‘avvosga o‘xshatish o‘rinli bo‘ladi. Ikki yirik olimga shihat-salomatlik va ijodiy parvozlar tilaymiz!

**Vahob RAHMONOV,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat xodimi**



“**Bir marta kerak bo‘ladigan xanjar umr bo‘yi taqib yuriladi. Umr bo‘yi takrorlab yuriladigan she‘r bir marta yoziladi...**”

Rasul HAMZATOV

QADRIYAT

Xiva xonligi arxivida barcha “machit qavmlari”dan olingan soli (solg‘ut) xazinaga topshirilgani haqida yozma hisobotlar daftarlarda qayd qilingan. Shuningdek, harbiy yurishlar, ariq va arnalarini tozalash (begor), ramazon oyidagi xayr-u ehson yoki biror madrasa va inshoot qurilishi bilan bog‘liq xarajatlar ham muntazam yuritib borilgan. Aynan sarf-xarajatlar bilan bog‘liq hujjatlarda qiziqarli yozuvlar saqlanib qolgan.

Masalan, Sharqshunoslik instituti arxividagi Xiva xonligiga oid 33-daftarning 7-varag‘idagi qisqa ma‘lumotga e‘tiboringizni qaratamiz: “Olti do‘g‘ma, besh yuz oltmish besh tillo. Mazkur do‘g‘malarga yigirma ikki tilloga egni-bosh olib berildi”. Bu yozuvlar 1856-yilda qirilgan yangi madrasaning ochilishiga oid xarajatlar ro‘yxatida qayd etilgan.

O‘sha vaqtdagi yozuvlarda “do‘g‘ma”, “sag‘ir”, “norasida” so‘zlariga ko‘p duch kelamiz. Bu so‘zlar sinonim bo‘lib, yetim ma‘nosini anglatadi. Demak, yangi ochilgan madrasaga olti yetim bola ham o‘qishga qabul qilingan va o‘quv yilidagi tirikchiligi uchun har biriga ma‘lum miqdorda pul berilgan. Madrasa ochilishida ularga kiyim-kechak ham tuhfa qilingan. Bu holat bir tomondan – xonlikda ilm istagan yoshlarni moddiy ma‘naviy ko‘llab-quvvatlash amaliyoti bo‘lsa, ikkinchi tomondan – taqdiriga yetimlik yozilgan bolalarga ko‘rsatilgan g‘amxo‘rlikdir. To‘g‘ri, har bir madrasaga talabalar qamroviga ko‘ra vaqf yerlari ajratilgan. Undan olingan daromad toliblarga nafaqa va donlarga maosh sifatida taqsimlangan. Yuqoridagi holatda esa yetimlarga xonlik tomonidan alohida e‘tibor qaratilganiga guvoh bo‘lamiz.

Ming yillik tariximizda o‘lkamizda “yetim-xona” deb atalgan maskanlar bo‘lmagan. Yetim qolgan bolalarni yaqinlari, yaqinlari bo‘lmagan taqdirda, boshqalar o‘z qaramog‘iga olgan. Yetim bolalarni boqish yaqinlariga qiyinchilik tug‘dirmagan. Boisi, xonlikda soliqdan ozod etilgan toifalar ro‘yxatida aynan “sag‘ir”lar birinchi bo‘lib qayd qilingan. Xonlikda sag‘ir toifasiga 13 yoshgacha bolalar kiritilgan.

1856-yilda yuritilgan soliq daftarida Niyoz Durdi mutavalli machitida 33 “a‘lo” (ulardan 31 navkar, bir yuzboshi va bir sag‘ir), 5 “avsat” (ulardan 2 navkar), 7

YETIM HAQI

“adno” (ulardan 1 navkar, 1 imom) qayd etilgan. Aholining 10 tanobdan ortiq yeri bo‘lgan qatlami – “a‘lo”, 10 tanobgacha yeri borlar – “avsat” va 5 tanobdan oz yerga egalar “adno” toifalariga bo‘linganini aytisak, ro‘yxatda keltirilgan sag‘ir masjid imomi va navkar-u sarbozdan ham ko‘proq yer egasi bo‘lgani ayonlashadi.

Soliq imtiyoziga ega qatlamga navkarlar, mahalla imomlari, mirshablar kiritilgani bejiz emas. Navkarlar davlat himoyasini, mirshablar yurt tinchligini asrasa, imomlar raiyatni hidoyatga boshlash va bolalar savod chiqarishlari uchun maktablarda saboq berish bilan bandligi bois, o‘z yer maydonlarida ishlashga ko‘p vaqt ajrata olmagan. Shu bois, ularga soliqdan imtiyoz berilgan. Bundan tashqari, yurt himoyasi yoki harbiy yurishlarda og‘ir jarohat olgan navkarlarga qo‘shimcha yer maydoni ajratilgan. Halok bo‘lgan navkar oilasiga yer ishlariga qo‘smaklashish uchun koranda toifasidagi xizmatkor ham ajratilib, unga maoshni xonlik to‘lagan. Bu ham navkarning yetim qolgan bolalari kelajagini o‘ylab qilingan xayrli amal, albatta!

Mir Alisher Navoiyning: “Kimki, bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay” satrlaridan anglashiladiki, milliy qadriyatlarimizda “ko‘ngli buzug‘”, ya‘ni yetim “xotirin shod aylagan” inson vayron bo‘lgan Ka‘bani qayta obod qilgan barobarida savob oladi. Aynan shu mavzuda juda ko‘plab otaso‘zlarimiz bor. Birgina “Yetimning haqi teshib chiqadi” matalining o‘ziyoq qarovchisini yo‘qotgan norasidalarga odilona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, yomonliklardan qaytarib turadi.

Afsuski, sobiq tuzum davrida chop qilingan aksar asarlarda o‘tmishda yurtimizda sag‘irlarga ko‘rsatilgan muruvvatlar haqida uzoq-yuluq ma‘lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga, qadim qadriyatlarimizga ayamay tosh otildi.

Taqdir taqozosi bilan Xiva xonining ukasi vafot etib, yetti yashar Otajon to‘ra sag‘ir bo‘lib qoladi. Hujjatlarda to‘razodaga xonlik xazinasidan berilgan chiq-ovqat, kiyim-



boshlar ro‘yxati bor. Tarixchilar aynan shu yordamga urg‘u beradi, xolos. Xonlikdagi qonun-qoidalariga ko‘ra, moddiy yordam va imtiyozga birgina Otajon to‘raga emas, boshqa yuzlab yetimlarga ham qo‘llangani negadir tarixchilarning “xotirasidan chiqib” qoladi. Ularga Navoiy hazratlarining xalqimizning qalbini ifoda etadigan o‘lmas misralarini eslatish bilan cheklanamiz.

Xorazm vohasida ilk yetimxona 1918-yilda ochiladi va bir asrdan ko‘proq faoliyat yuritadi. Garchi, bu maskanga turli yillarda “Bolalar uyi”, “Muruvvat uyi”, “Mehribonlik uyi”, “Bolalar shaharchasi” kabi atamalar berilgan bo‘lsa-da, oddiy xalq ularni toki tugab ketgunicha “yetimxona” deb atadi. Millatimizga, sharqona va islomiy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan bunday maskanlarning tashkil qilinishini bir narsa bilan izohlash mumkin. Ya‘ni, xonlik tugatilishi bilan amaldagi ustqurmalar barbod bo‘lib, vaqf yerlari davlat foydasiga musodara qilingan va yetim bolalarga davlat tomonidan moddiy yordam ko‘rsatish tizimi yaratilmagan.

Aholi tirikchiligi asosan dehqonchilik bilan bog‘liq vohada xonlik davridagi sag‘irlarga yer ajratish, soliqlardan ozod qilish tartibi bekor qilingach, aksar xonadonlar yaqinlari vafot etganida, ularning bolalarini yetimxonalarga topshirishga majbur bo‘lgan. Masalaning yana bir tomoni, fuqarolar urushi davrida bir-biriga tig‘ ko‘targan har ikki tomon ko‘plab qurbonlar bergan – ikki o‘rtada yetimlik boshiga

tushgan bolalar ko‘chada qolgan. Ilk faoliyat boshlagan “Bolalar uylari” o‘sha yetimlarning bir qismini bag‘riga olgan, xolos. Aksar yetimlar taqdiri fojiali kechgan, qanchasi davr mashaqqatlaridan omon chiqmagan...

Mustamlaka zamonida o‘zligini yo‘qotayozgan millatni ilm-ma‘rifat bilan uyg‘otishni maqsad qilgan jadid bobolarimizning davr talotumlari sabab paydo bo‘lgan yetimxonalarga e‘tibori ular tomonidan tashkil qilingan turli jamg‘armalarning bu maskanlarga muntazam moddiy yordam ko‘rsatib kelgani, tarbiyalanuvchilarning bilim olishi uchun shart-sharoit yaratishga ko‘maklashib, iqtidorli yoshlarni chet davlatlarga o‘qishga yuborishga bosh-qosh bo‘lganlarida ko‘rinadi.

Qadim tariximizda bosqinlar, savashlarning son-sanog‘i yo‘q. Urushlar oqibida yurt vayron bo‘lgani bir-u minglab bolalar yetim qolgani bir tomon. Urushlar jabrdiydaga aylantirgan sag‘irlarni yaqinlari va savobtalab insonlar qaramog‘iga olganlarki, yurtda yetimxona kabi muassasa ochishga ehtiyoj bo‘lmagan. Bu so‘z lug‘atimizda uchrarmagani sababini ham ushbu qadriyatlardan izlash o‘rinlidir. Qadim Xivada bir asrcha faoliyat yuritgan “Mehribonlik uyi”ning qamrovi eng ko‘pi bilan yuz ellik o‘ringa teng edi. Aholi soni ikki millionga yetgan vohada o‘n ming kishidan faqat birgina bolaning taqdiriga yetimlik yozilishini tasavvur qilish qiyin.

Amakimning avval ayoli, so‘ng o‘zi og‘ir xastalikdan vafot etganida, o‘n nafar voyaga yetmagan bolalari yetim qoldi. Tuman hokimligi ularni “Mehribonlik uyi”ga topshirish tadorigiga tushdi, ammo qarindoshlar rozi bo‘lmadik, kafillikni bo‘ynimizga oldik. O‘zim ham kafil sifatida necha idoralarga tilxat yozib berdim. Yigirma yil oldin yetimlik boshiga tushgan o‘n nafar bola bugun el qatori yashamoqda – beshta imorat tiklashdi, yengil mashina egalari aylanishdi. O‘z taqdirilarini o‘zlari yaratishlarida avvalo davlatimiz ajratgan nafaqa, homiylar va amakilarimning beg‘araz yordamlari tayanch bo‘ldi.

...Bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Xivadagi “Mehribonlik uyi” direktori, O‘zbekiston Qahramoni Vera Borisovna Pak iltimosi bilan mazkur maskanga bag‘ishlangan kitobni tayyorlashda ishtirok etdim. Kitob ustida ishlayotgan kunlarning birida, Vera opa qaygadir yig‘ilishga ketgan ekan, “Mehribonlik uyi” oldidagi o‘rindiqa u kishini kutib o‘tirdim. Shu payt maktabdan qaytayotgan bir guruh o‘quvchilarga ko‘zim tushdi. Ular muassasa darvozasi ga kelganlarida, uch nafari – “Mehribonlik uyi”da yashovchi bolalar ajralib, hovliga kirdi. Ammo, darrov ichkarga kirmasdan, uylariga qaytayotgan o‘quvchilar ortidan ancha vaqt qarab qolishdi. Ularning mahzun nigohlaridan: “Bizga ham boshqa bolalar kabi o‘z uyimizga borish nasib etarmikan?” degan achchiq o‘ylarni tuyganday bo‘ldim.

Bilasiz, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bundan yetti yil muqaddam yurtimizda bir asrdan ko‘proq faoliyat yuritgan “yetimxona”lar tugatildi, ya‘ni qadim qadriyatlariga qaytildi. Ularda tarbiyalanayotgan bolalar oilalar bag‘riga berildi. Savobli ishga bosh bo‘lgan bunday xonadonlarda yashayotgan bolalar davlat ta‘minotida bo‘lib, ularning buguni va kelajagi kafolatlangan. Ular haqiqiy oila sharoitida voyaga yetadi, bu bilan ularning ruhiyatida keskin o‘zgarish ro‘y beradi – hech bir tomondan kamchilik sezmaydi.


E‘tiborlisi, rasmiy tilimizda “yetim”, “yetimxona” so‘zlari ishlatilmaydi. Shunday qatlam haqida gap ketganida, “boquvchisini yo‘qotgan” iborasi qo‘llaniladi. Bu ham bo‘lsa, sag‘irlik taqdiriga yozilgan ko‘ngillarga ozor yetkazmaslik, ularni o‘ksitmaslik belgisi!

Ro‘zimboy HASAN



MILLAT FIDOYILARI

“Kim buyuk maqsadga intilsa, o‘zini o‘ylamasligi zarur”, deyiladi. “O‘zini o‘ylamaslik”ni turlicha talqin etsa bo‘ladi. Inson har soniyada bevosita yuzlashadigan yechimtalab muammolarda o‘zini qurbon qilish evaziga bo‘lsa-da, o‘zgalariga baxt sog‘inishi, ayniqsa, xalq istiqboli yo‘lida sobit turib kurashishi buyuk fidoyilik, aslida. Bugun yaqin o‘tmishning o‘ta murakkab, chigal taqdirini yashab o‘tgan ma‘rifatparvar shaxslardan biri Najab Qurbonov haqida hikoya qilamiz.



Najab Qurbonov hibsxonada. 1937-yil.

Qurbonov ham jadidlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydi. “Yosh buxoroliklar” harakati tashkil topgach, u Otaxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Muinjon Aminov va Ibodulla Xo‘jayev (Fayzulla Xo‘jayevning ukasi) bilan amirlik hokimiyatini isloh qilish tarafdori bo‘ladi. Ular Buxoroda ta‘lim, sud va boshqaruv tizimini zamon talablariga moslashtirish orqali jamiyatni yangilash mumkin, deb hisoblardilar. Shu maqsadda, Najab Qurbonov “Sho‘royi Islom” tashkilotining Buxorodagi bo‘limi faoliyatiga qo‘shiladi hamda uning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etadi. Biroq mazkur harakat amirlik uchun xavfli deb baholalanib, Najab Qurbonov bir necha bor Kogon shahridan noqonuniy qurol olib o‘tganlikda ayblangan holda hibsga olinadi va zindonband qilinadi. Tergov-u jazolar unga qattiq ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, zinhor o‘z g‘oyalaridan voz kechmaydi.

Amir Said Olimxon 1917-yil aprelida jadidlarni quvg‘in qilgach, Najab Qurbonov Buxorodan chiqib ketishga majbur bo‘ladi va Toshkentga yo‘l oladi. Muhojirlik yillari qahramonimiz hayotida yangi bosqichni boshlab berdi: u endi jadid g‘oyalarini amaliy

siyosiy harakat sifatida idrok eta boshlaydi.

1921-yil oxirlarida Buxoroda siyosiy vaziyat hali ham beqaror edi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgan bo‘lsa-da, Sharqiy Buxoroda Anvar posho boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar harakati davom etayotgan, jadidlar orasida esa turli qarashlar mavjud edi. Ana shunday murakkab sharoitda Najab Qurbonov faoliyati ham tobora xavfli tus ola boshlaydi.

O‘sha yili boshqirdistonlik siyosiy arbob Ahmad Zakiy Validiy yashirin tarzda Buxoroga keladi. U bilan uchrashganlar orasida Najab Qurbonov ham bo‘lib, bu haqda keyinchalik voqea guvohlaridan biri shunday ko‘rsatma beradi: “Men o‘sha paytda Buxoroda noqonuniy bo‘lib turgan Ahmad Zakiy Validiy yashiringan Ibod Xo‘jayevning uyida edim. Zakiy Validiyning o‘g‘li vafot etgan kuni Najab Qurbonov Ibodxonning uyiga kelganini yaxshi eslayman. Choy ichilganidan so‘ng, Zakiy Validiy Najab Qurbonovga “Milliy Ittihad” aksilinqilobiy tashkilotining vazifalari va maqsadlarini batafsil tushuntirib bergan... Najab Qurbonov bilan suhbatni yakunlar ekan, Zakiy Validiy shunday degan: *“Bugun mening motam kunim – o‘g‘lim vafot etdi, ammo forsiy aholi vakili bizning tashkilotimizga qo‘shilganidan va biz bilan Vatanni ozod qilish uchun harakat qilishidan xursandman”*.

Faoliyatini shu ruhda davom ettirar ekan, 1922-yilda qahramonimiz yana bir voqeada ishtirok etadi. O‘sha yili turkistonlik jadid Laziz Azizoda Buxoroga kelgan chog‘ida, Qizil Armiyaning 13-korpusi askarlari uni hibsga oladi. Unga nisbatan Chorjo‘y ko‘p-rigini portlatishga urinish aybi qo‘yiladi. Shu holatda Najab Qurbonov uni himoya qilib, hayotini saqlab qoladi va Turkistonga qaytib ketishida yordamini ayamaydi.

Shundan keyingi yillarda Najab Qurbonov turli mas‘ul lavozimlarda ishlaydi. Hunarmandchilik sanoat uyushmasi raisi sifatida mahalliy ishlab chiqarishni tiklash, aholi turmushini yaxshilashda jonbozlik ko‘rsatadi. Biroq 1937-1938-yillarda amalga oshirilgan “katta terror” Najab Qurbonovni ham o‘z girdobiga tortib ketadi. U 1937-yil 5-yanvarda ayoli Shamsiya Xursanova, o‘g‘illari – Ibrohim, Ismoil, Narimon, qizi Salomat ko‘z o‘ngida Buxoro shahridagi xonadonidan bir guruh Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) xodimlari tomonidan olib chiqib ketiladi. Tintuv vaqtida unga tegishli bitta revolver va 8 ta eski diniy kitob dalil sifatida olib qo‘yilib, o‘zi Buxorodagi turmada muttasil so‘roqqa tutiladi.

NKVD xodimlari Najab Qurbonovni qatag‘on qilish maqsadida ko‘plab “guvoh”lardan majburan olingan “ko‘rsatma”larni ishga

soladi. Bu o‘rinda qaysi bir “guvoh”ning qahramonimizni taniqli jadid bo‘lganini e‘tirof etgani ham “ayblov”ga o‘tib ketadi. 1933-yil bilan bog‘liq boshqa guvohlikda unga nisbatan “surgun qilingan trotskiychilarni ishga taklif qilgan” degan ayb ilgari suriladi.

Bu turdagi ko‘rsatmalarning barchasi uning nomini siyosiy jihatdan “ishonchsiz shaxs”ga chiqarishga, shunday ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ayblov bayonnomasida qayd etilishicha, Najab Qurbonov qayta va qayta sovet hukumati siyosati yuzasidan tanqidiy fikr bildirgan. “Bir kishi (o‘rtiq Kirov) uchun 6000 kishi o‘tib tashlangan va Zinoviyev va Kameney kabi kishilar qamoqqa tashlangan, vaholanki, ular inqilobni amalga oshirganlar va inqilob oldida katta xizmatlarga ega edilar. Sovet hukumati amalga oshirayotgan siyosati bamisoli qassoblar ishiga o‘xshaydi”, degan gapi unga nisbatan ayblovlarning bosh nuqtasiga aylanadi.

Demak, aholining turli qatlamlari orasida mustaqillik, vatan ozodligi haqida fikrlovchilar bo‘lgan. Fikrning o‘ziga kelsak, u hech qanday tahlil, izoh talab qilmaydi. Ular sovet hokimiyati nomidan yuritilayotgan talonchilik va istilochilik siyosatidan noroziliklari bilinib turibdi. Shunday holda, bu bechoralar “xalq dushmani” tamg‘asi bilan otib yuborilgan. Hech kim: “Bular qaysi xalqning dushmani?” deb so‘rab ham o‘tirmagan” (“Sharq yulduzi” jurnali, 1992-yil, 7-son).

“Inson bo‘lmoq – kurashchi bo‘lmoqdir”, degan Gyote. Tergov jarayonlarida Najab Qurbonovga qarshi to‘qilgan ayblovlar isbotga ega emasdi, ammo butun umrini xalq osoyishtaligi yo‘lida kurashga bag‘ishlagan shaxs 1937-yilning 17-avgustida otuvga hukm etiladi. Shunday qilib, ilm va adolat orzusini yuragida asragan yana bir inson, yana bir kurashchi, yana bir jadid qattol zamon qurboniga aylanadi. Qachonki, yuzlab xat va arznomalardan




Buxoro xalq sho‘ro jumhuriyatining e‘lon qilinishi. 1920-yil, sentyabr.

Shu o‘rinda qahramonimiz faoliyatiga doir ma‘lumotlardan yana birini keltirib o‘tsak: “1936-yil 6-sentyabrdan boshlab Najab Qurbonovning uyiga Tosh Rahmatullayev, Ismoil Sharipov, Jo‘ra Mo‘minov, Shukrullo Oqsoqol, Shavkat Sulaymonov, Ahmad Alimov va boshqalar to‘planishadi. Yig‘ilishda suhbat quyidagicha yakunlanadi: *“Moskva Buxoroning jami boyligini egalladi. Oltinimiz, paxtamiz, qorako‘l terilar tashib ketilmoqda. O‘zlarida katta sanoat korxonalari, zavod-fabrikalar qurib, mamlakatini boyityapti. Biz esa ahmoq bo‘lib, ularga qo‘shilib amirni ag‘dardik, endi barmog‘imizni... tiqib o‘tiribmiz. Biror harakat qilib bo‘lmasa...”*

so‘ng, 1957-yili ko‘plab begunoh odamlar qatori qahramonimiz nomi oqlanadi. Afsuski, xazon bo‘lgan umrlar ko‘karmaydi. Dilbandi ortidan zor qaqsab qolgan onalarga, padari mehrini ko‘rmay o‘sgan bolalarga hech nimani qaytarib bo‘lmaydi.

Bizning yagona taskinimiz esa o‘tmishdan saboq olish, haqiqat uchun jon fido qilganlar xotirasini muqaddas bilib, asrab-avaylashdir. Ular orzu qilgan ma‘rifatli, adolatli jamiyat qurish bugungi avlod zimmasidagi eng ulkan qarzdor.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor



“Tanlov nafaqat biz tanlagan narsa, biz rad etgan narsa ham tanlovdir.”

SUQROT

MOZIYDAN SADO

Dunyoda global xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan murakkab bir davrda, biz uchun milliy o‘zlikni anglash va haqoniy tariximizni tiklash masalasi har qachongidan ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, mustabid tuzumning shafqatsiz qatag‘oniz uchragan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san‘at, adabiyot namoyandalarining, ming-minglab begunoh yurtdoshlarimizning xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati timsolida yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Ko‘pmillatli xalqimizning fidoyi qilish asnosida bunga yana bir bor farzandlari, ma‘rifatparvar ajdod-amin bo‘ldik. larimiz hayoti va faoliyati bilan Moziygoh uch bo‘limdan iborat. bog‘liq haqiqatni to‘la yuzaga Avvalgi ikki zal mustamlakachilik

chiqarish, ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklash, bu boradagi ish-larning ko‘lami va samarasini oshirish maqsadida Navoiy davlat universitetining tarix fakulteti qoshi-da ham Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil etilgan. Navoiy viloyati bugungi dorilomon kunlarda Qizilqum kengliklari ichra gullab-yashnayotgan bo‘lsa-da, uning bag‘-rida ham o‘tmish qatag‘onlarining chuqur jarohatlari bor. Bu izni na vaqt shamollari, na qum bo‘ronlari yopib keta oldi. Biz muzeyni ziyorat

siyosati – Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi hamda 1917-yildan to Mustaqillikkacha hukm surgan sovet tuzumi davrida xalqimiz boshdan kechirgan azob-uqubatlari haqida hikoya qiladi. Uchinchi zal esa 1991-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan O‘zbekistonning yangi siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-ma‘naviy asoslari, bugungi taraqqiyotini namoyon etadi.

Muzeyda ikki mingdan oshiq qadimiy ashyo mavjud bo‘lib, u vohaning 150 yillik tarixidan so‘zlaydi. Muassasaning zaxira fondida ham yana ikki mingdan oshiq manba – har xil turdagi hujjat, audio, video, kitob va suratlar saqlanmoqda.

– Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktyabrdagi farmoyishi bilan qatag‘on qurbonlarini nomma-nom aniqlash bo‘yicha joylarda ishchi guruhlar tuzilib, barcha hududlarda o‘rganishlar davom etmoqda, – deydi muzey direktori, tarix fanlari nomzodi, dotsent Xurshid Qurbonov. – Bugungacha Navbahor, Qizil-tepa, Xatirchi, Konimex, Nurota va Karmana tumanlaridan 1937-yil qatag‘oni va navbatdagi qirg‘in – “paxta ishi”ga doir 4200 dan ziyod yurtdoshimizning ma‘lumotlari jamlandi. Bu boradagi tarixiy ma‘lumotlarni xolis va haqqoniy o‘rganish mamlakatimiz mustaqilligini qanday og‘ir va mashhaqqatli kurashlar bilan qo‘lga kiritilganini, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashash kerakligini

yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ushbu muzey shunchaki ekspонатlar saqlanadigan bino emas, balki Buxoro amirligi tarkibiga kirgan yerlarning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan bog‘liq ashyolar, hujjatlar, ma‘lumotlar, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilishiga oid manbalardan tortib, Uchinchi Renessans davrini boshlab beruvchi yangi avlod erishayotgan yutuq-largacha bo‘lgan davrga sayohat qilish imkonini beruvchi o‘ziga xos “vaqt mashinasi”dir.

Ayniqsa, o‘sha og‘ir davrlarda xuddi insonlardek qatag‘onga ekrangan, bugun muzeyning noyob ushronati bo‘lib qolayotgan kitoblar keluvchilar diqqatini o‘ziga jalb etadi. Bu kitoblar orasida millat e‘tiqodiga qo‘yilgan olovdan omon chiqqan Qur‘oni Karimning nodir qo‘lyozmasi va 1883-yilda eski o‘zbek yozuvida chop etilgan So‘fi Olloyorning “Sabot-ul ojizin” asarining asl nusxasi bor. Har ikki kitob kuyib qorayib ketgan bo‘lsa-da, o‘z davri ruhini beradigan tarixiy manba vazifasini o‘tamoqda.

Bundan tashqari, Munavvar qori Abdurashidxonov muharrirligida chop etilgan “Milliy she‘rlar, adab va din darsligi” ham muzeyning muhim ekspонат sifatida saqlanmoqda. Bu kitob jadid maktablarining o‘quv kitobi bo‘lib, Muso Turkistoniyning “Ulug‘ Turkiston fojiasi” asarida yangi usul maktablarida o‘qitilgan darsliklar ro‘yxatidan joy olgan.



– Viloyatimiz ulug‘ mutafakkir nomi bilan atalgani bois, muzeyda “Alisher Navoiy” ko‘rgazmasi ham tashkil etilgan, – deydi Xurshid Qurbonov. – Bu yerda Hirotdan, buyuk mutafakkir xokidan olib kelingan bir siqim tuproq, Afg‘onistondan kelgan mehmonlar sovg‘a qilgan Alisher Navoiy asarlari mavjud. Umuman olganda, bugun muzeyimiz haqiqiy ma‘naviyat va ma‘rifat maskaniga aylandi. Uning tarix fakulteti binosida joylashuvi ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Muzey fakultet talabalari uchun ilmiy laboratoriya vazifasini o‘tamoqda.

Suhbatdoshimiz bizni atqli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov ko‘rgazmasiga boshladi. Viloyat hamda Navoiy, Zarafshon

va Uchquduq shaharlarining tashkil etilishida u kishining ulkan xizmatlari borligini aytib, bu ishga aloqador manbalar yoshlarni yanada qiziqtirishini bildirdi.

Ushbu dargoh bilan tanishuvimiz poyoniga yetar ekan, muzeyga yangi mehmonlar – Turkiya va Erondan kelgan sayyohlar tashrif buyurdi. Direktor va xodimlarning o‘zini tutishidan ma‘lum bo‘ldiki, muzeyga xorijliklar tashrifi odatiy holga aylanibdi. Biz ham chet ellik tarixsevarlar bilan suhbatlashdik. Mehmonlar bu kabi muzeylar har bitta viloyatda tashkil etilganidan hayratlanib, ularni ham o‘z yo‘l xaritalariga albatta kiritib qo‘yajaklarini ta‘kidladilar.

Muhayyo RUSTAMOVA

NAVOIYDA SHUNDAY MUZEY BOR



Boshlanishi 1-sahifada

“Faqat bir taraqqiy yo'lida necha yuz sanalar mol sarf etmishlar, jon qurbon etmishlar, necha-necha balolarni boshidan kechirmishlar-da, so'ngra shunday maqsadga erishmishlar”.

Demak, taraqqiyotga shunchaki orzuning o'zi bilan erishib bo'lmaydi. Buning uchun shijoat, sarvat, xizmat, tadbir, bilim kerak. Taraqqiyot uchun mol sarf etish, jon fido qilish, balo va ofatlarni yengmoq lozim. Shu bois, Behbudiyning taraqqiyot konsepsiyasi negizini ilm tashkil etadi. Har qanday millat dunyoda o'z o'mini ilm bilan topadi. “Padarkush” dramasi obrazlaridan biri Ziyoli aytadi: “Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan”.

“Taraqqiyot” so'zi jadid gazetasiining nomi ekanini ta'kidlashga zarurat yo'q. Ayni damda bu so'z Behbudiyning ko'plab asarlari sarlavhasiga ham chiqqan. Behbudiy o'zini o'yaltirgan, qiynagan masalani sarlavhaga chiqarib, “Millatlar qanday taraqqiy etalar?” *deya savol qo'yadi. Javob esa aniq:* “Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo ila ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridir. Taraqqiy qilg'on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvoli'ga diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o'z millatlarig'a so'z va aqcha ila xizmat etganlari favran hozir bo'lu'r”.

Ulam o'z qalami bilan fikr, maslahat, pand-nasihat, ta'lim-tarbiya beradi, kitoblar yozadi, gazeta va jurnallar nashr qiladi. Maktablar ochadi, ta'limni isloh qiladi. “Zamona ag'niyolari o'z millatlarini zamoniycha kerakligi yo'linda aqcha sarf etalar... Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunin, Kafkaz, Qrim, Qozondagi musulmon birodarlarimizni(ng) boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o'z birodarlarig'a mol, aqcha, qalam va ilm ila ko'b iona qiladurlar. Ammo bizni(ng) Turkistonda bu ishlardin so'ylamoqqa hanuz navbat kelgan yo'q...”

Behbudiyning orzu-niyati, havasi, namuna va qiyosi shunday.

“Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko'y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko'paygan. Biz musulmonmiz. Musulmonlikg'a ilm lozim, amal lozim. O'qumog kerak. Nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q? Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammolikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig'a tobe ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lu'r, musulmonlik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”.

Garchand bu maqola 1913-yilda yozilgan bo'lsa ham, Behbudiyning taraqqiyotga doir qarashlari u to'liq qalam olib, vaqtli matbuotda ishtirok eta boshlagan dastlabki davrlardan boshlangan. Bu maqola esa dasturiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Behbudiy qaysi mavzuni yozib muhokama qilmasin, hamisha taraqqiy va yuksalishdan so'z ochadi; hamisha taraqqiy etgan va yuksalgan dunyo millatlari va mamlakatlarga havaslanib qaraydi. Eng muhimi, taraqqiyot negizi bo'lgan islohotga, bilim olishga, dunyoning rivojlangan mamlakatlari holiga nazar solishga undaydi. Behbudiy bunday o'rinlarda chinakam millat qahramoni, kurashchisi, fidoyisi, jonkuyariga aylanadi.

Bugun buyuk Behbudiyni anglaydigan va har kimga anglatadigan zamondir.

Zaynobidin ABDIRASHIDOV, professor:

– Mahmudxo'ja Behbudiy O'zbekistonning yaqin tarixida chuqur iz qoldirgan, butun umrini millatni uyg'otish g'oyasiga bag'ishlagan, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'afolat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar etgan buyuk shaxs, milliy jadid harakatining g'oyaviy rahnamosi va yetakchisidir.

Mahmudxo'ja Behbudiy “maktabimiz, do'konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur” degan shior bilan islohotni maktabdan, aniqrog'i, boshlang'ich maktabdan boshlagani, albatta, bejiz emas edi.

Maktab “taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning



darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha, taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdan foydalanmas”, degan aqidani ilgari surgan Behbudiy boshliq jadidlar boshlang'ich ta'limni ona tilida berishga mo'ljallangan milliy maktablar yaratishga qaratilgan dasturni taklif etdi. Behbudiy quyi va yuqori maktabning islohi millatning isloh etilishiga olib keladi, deb hisobladi. Uning ta'kidlashicha,



millatning isloh etilishi milliy g'oya bo'lib, uni barcha targ'ib qilishi kerak. Behbudiy “umummilliy g'oya” mohiyatini tushuntirar ekan, ushbu g'oya qolgan barcha g'oyalardan yuqori turishi, millatning kelajakka intilishi va undan keladigan foydasini aks ettirishi lozimligini ta'kidlaydi.

Atqoli jadidshunos olim Begali Qosimovning fikriga ko'ra, Turkiston jadidlarining gazeta, xayriya jamiyatlari ta'sis etish, yangi usul maktablarini yo'yish, teatr ishlari va boshqa barcha harakatlari bir milliy g'oya uchun xizmat qildi. Uning ta'kidlashicha, har bir g'oya milliy g'oyaga aylanishi uchun ikki talabga javob berishi kerak: 1) g'oya millatning haqiqiy ehtiyoji, turmush tarzi, asriy an'analari va albatta imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak; 2) ushbu g'oya millat tomonidan anglab yetilishi, boshqa so'z bilan aytganda, milliylashishi kerak. Ya'ni, g'oya millatning har bir vakili yuragiga yetib borishi zarur.

Behbudiy boshliq barcha jadidlar xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarflanadigan mablag'ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash uchun yo'naltirishga da'vat etdi. Behbudiy bu harakatni umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohish va intilishlar deb ataydi. Oliy maqsadlar, xohish va intilishlarni amalga oshirish uchun esa iroda, aniqroq aytadigan bo'lsak, siyosiy iroda kerak edi.

Behbudiyning: “Haq olinur, berilmas..., g'ayrat ila olinur” degan chaqirig'i, eng avvalo, millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmashligini anglatadi.

Behbudiy Turkiston aholisini ma'rifatlil, bilimli qilishda juda sernahsul, sernamzun faoliyat olib bordi. Hoji Muin so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, “Behbudiy afandi qo'lig'a qalam olib, Turkistonning yangilik va yuksalishig'a hommay-tolgay, talashib-tortishib xizmat qilg'on birdan bir muharrir va yo'lboshchi” edi. Ushbu faoliyatning muhim bir qismini jurnalistlik, gazetachilik tashkil qiladi. U bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarish, “Xurshid”, “Tujior”, “Haqiqat” (keyinchalik “Shuhrat”) kabi mahalliy gazeta va jurnallardagi ishtirokidan tashqari, Kafkaz, Qrim, Volgabo'yi musulmonlarining vaqtli nashrlarida ham faol qatnashib turadi. “Behbudiy afandi, – deb yozadi Xoji Muin, – Kafkaz, Toriston va Turkistonda chiqqan matbuotda doim adabiy, ilmiy, ijtimoiy va siyosiy maqolalar yozib turar edi”.

Behbudiy maqolalarining aksari Turkiston maktab-madrasalarining islohi, bu borada qilinayotgan sa'y-harakatlar haqida edi. “Behbudiy maqolalarining ko'bisi muhim

ANQARADA

behbudiyxonlik

mavzularda yozilg'on bo'lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturulamal bo'laturg'on foydalik so'zlardur”, deb yozadi o'z vaqtida Hoji Muin.

Behbudiyning Turkistondan tashqaridagi vaqtli nashrlardagi faoliyatida vaqt jihatdan chegaralanishni, ya'ni 1909–1913-yillar orasida u o'sha nashrlarda faolroq ishtirok etganini kuzatamiz. Shunisi achinarliki, Turkiston jadidlarining yetakchisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning o'lkadan tashqaridagi vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalari haligacha to'planib, tadqiq etilmagan. Bu, Behbudiy ijodini o'rganishda tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda Behbudiyning jadidlar yosh avlodi to'g'risidagi fikrlarini keltirib o'tishni istardim. Behbudiyga ko'ra, jadidlarning yosh avlodi o'rtasida g'oyaviy jihatdan ixtilof bor edi. Aynan ana shu ixtilof sababli, xalq jadidlaridan yuz o'giradi. Behbudiy yoshlarni tezroq o'zaro kelishuv yo'lini topishga va yo'qotilgan xalq ishonchini qaytarishga chaqiradi. Chunki “umummilliy g'oya” yo'lida bir bo'lib harakat qilmaslik millatning bo'linish va umummilliy loyihalarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin.

Alloma rahbarlik qilgan Turkistondagi jadid harakatining mintaqadagi munosib o'rmini ko'rsatish, jadidlar faoliyati va ijodini chuqur o'rganish, keng ko'lami ilmiy tadqiqot ishlari olib borish va keng targ'ib qilish borasida oldimizda muhim vazifalar bor. O'z davrida zamonaviy o'zbek jamiyati va davlatчилиgining shakllanishiga munosib hissa qo'shgan jadidlarning boy ilmiy va ijodiy merosi bugungi murakkab davrda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish hamda o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar avlodni tarbiyalashda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Nodira EGAMQULOVA, dotsent:

– Turkiston jadidlari turk, tatar, ozarbayjon ma'rifatparvarlari bilan doimiy aloqada bo'lgani bois, o'zaro hamkorliklari ham shunga mos rivojlanib bordi. Turkistonlik adiblar qardosh o'lkalardagi maorif, matbuot,



adabiyot sohasidagi o'zgarishlarni kuzatib bordi va ularning ilg'or tajribalarini yurtimizda tatbiq etdi. Turkiston jadidlarining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu jarayonlar markazida bo'ldi. Laziz Aizzoda so'zlari bilan aytganda, “Behbudiyning xizmati fransuzlarning Jan Jak Russo, ruslarning Lomonosov, Chernishevskiy va Pisarevlari, Kafkaz turklarining Fathali va Najafbeklari, tatarlarning Marjoniy va Nosiriysi ila birdur”.

Behbudiy 1896-yildan boshlab Tatariston, Qrim, Turkiya, Arabiston, Hindiston kabi mamlakatlarda nashr etilgan gazeta va jurnal-larni o'qishga kirishib, o'zi ham “Tarjimon”, “Ulfat”, “Vaqt” gazetalari-da maqolalari bilan ishtirok eta boshladi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy va Rizouddin Faxriddinning aloqalari “Sho'ro” jurnali sahifalari orqali mustahkamlanib bordi. Jurnal Turkiston, Qozog'iston, Kavkaz, Qrim va Turkiya-da o'qilardi. Beh-

budiy jurnal tashkil topgan dastlabki yildanoq maqolalari bilan qatnashib turdi. Behbudiy haqidagi risolalarda 1910–1912-yillarda “Sho'ro” jurnalida uning asarlari chop etilgani aytiladi. 1908-yili “Sho'ro”da e'lon qilingan “Turkiston idorasi” maqolasi Behbudiy jurnal tashkil topgan birinchi yildanoq unga maqola yuborib, tahririyat bilan aloqa o'rnatganini ko'rsatadi.

Behbudiy bilan tatar ziyolisi Muso Begiyevning aloqalari ham “Ulfat” gazetasi orqali boshlangan edi. Ularning ilk ko'rishuvi Behbudiyning 1907-yil dekabr oyidagi Qozon sayohatiga borgan pallasiga to'g'ri keladi. Bu uchrashuv to'g'risida Behbudiy: “Ushbu sana Rusiyag'a sayohatim asnosig'a Qozonda Muso afandi ila kitob va qalamdan boshqa nimarsasi yo'q hujrayi zaminasig'a o'n besh daqiqacha bir qisqa zamon suhbat qilib edim va takrori Allohdan marjudur”, deb yozadi.

Behbudiyning milliy matbuot taraqqiyotiga qo'shgan eng muhim hissalaridan biri – “Oyina” jurnali tatar ziyolisi Abdurashid Ibrohimovning “Mir'ot” (“Ko'zgu”) jurnali uslubida nashr qilingan edi. 1900-yili Peterburgda nashr qilina boshlagan “Mir'ot” jurnali so'ngra Qozonda ham chiqadi.

1913-yilda tashkil etilgan “Oyina”ga Mahmudxo'ja Behbudiyning eng qizg'in ijod pallasini aks etib turgan ko'zgu sifatida qarash mumkin. “Turkiy va forsiy o'rta shevada” chiqqan ilk jurnal – “Oyina” xalq orasida ancha mashhur bo'lgan edi. Birgina Turkistonda emas, “dunyo musulmonlari orasida yaxshigina shuhrat va e'tibor” qozongan “Oyina” millat uchun “yasalgan” edi: “Majalla bizniki emas, millatnikidir”, deb ta'kidlagan Behbudiy.

Haqiqatan ham, “Turkistonga xizmatni buyuk” deb e'tirof etilgan “Oyina” bu yo'lida og'ishmay ijod qildi, “o'lka xalqlarining fikriy uyg'onishiga katta hissa qo'shdi”. Jurnaling yuzaga kelishida Behbudiyning ruhlantirgan omil dastlabki tatar jurnali “Mir'ot” bo'lganiga yana bir misol: u jurnalni “Mir'ot” – “Ko'zgu” – “Зеркало” – “Oyina” deb to'rt tilda nomladi va u “Oyina” nomi bilan shuhrat topdi.

Aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy, madaniy, diniy hayotda kuzatilayotgan islohotlarning o'lkamizga kirib kelishida turk, tatar, ozar taraqqiyparvarlarining ta'siri katta bo'ldi. Sayohatlar, matbuot, turli syezdlar, jamiyatlar turkiy xalqlarning milliy va siyosiy birlik yo'lidagi dastur va g'oyalarni o'rtoqlashishiga yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, turkiy dunyoda kechgan milliy uyg'onish harakatlari qardosh xalqlar orasidagi aloqalarni yaqinlashtirdi.

Iskandar MADG'OZIYEV, dotsent:

– Mahmudxo'ja Behbudiy 1906-yil boshida Abdulqodir Shakuriy tashkil etgan yangi usul maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keladi. Ushbu davr miyonasida u jidd-u jahd bilan ishlab,



usuli jadid maktablari uchun beshta darslikka tartib berib, chop ettiradi. Darsliklar nafaqat Samarqand hududi, balki butun Turkiston o'lkasi bo'ylab keng yoyilib, usuli jadid

maktablari o'quvchilarining asosiy qo'llanmalariga, muallimlarning beminnat ko'makchisiga aylanadi.

Behbudiyning bugunga qadar deyarli o'rganilmagan, ilmiy istifodaga olib kiritilmagan darslik va risolalari talaygina. Ulardan biri “Muxtasar tarixi islom”dir. “Nashriyoti Behbudiya” tomonidan 1909-yili Samarqanddagi “Hoboe dengo” shirkatining tipolitografiyasida bosilgan, “Turkiston maktablari uchun” mo'ljallangan mazkur mo'jazzgina darslik-risola “Muxtasar tarixi islom”ning 1-juz'i hisoblanadi.

Darslik unvonida islom dini paydo bo'lishidan to' to'g'ri yo'ldan borgan to'rt xalifa” davrigacha kechgan tarixlar ushbu kitobda bayon etilishi ta'kidlanadi. Quyi-roqda uning “Zuhuri Ummaviyadan zamoni hozira qadar” bo'lgan 2-juz'i ham “tezlik ila” nashr etilishi bildiriladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, muallif yangi usul maktablarining darsliklarga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligi tufayli “Muxtasar tarixi islom”ni tez fursatda tayyorlab, ixcham shaklda va yuqori sifatda chop ettirib, uning ikkinchi qismini hozirlashga kirishgan.

O'ttiz sakkiz sahifadan iborat mazkur darslik-risola ravon uslubda bitilgan bo'lib, Turkiston maktablarining o'zbek tilida o'qiydigan o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Muallif Misr, Arabiston, Usmonli Turkiya, Hindiston, Kafkaz va Tataristondagi barcha muntazam maktablarda ko'pdan beri “Tarixi islom” o'qitilishini ta'kidlab, dastavval uning ahmiyati xususida fikr yuritadi. Shuningdek, ovropoliklar va Rusiyadagi maktab shogirdlari dunyo dinlari tarixi, xususan, islom tarixini ham o'rganishlari sababli “bir nasoro shogirdi bir musulmon talabasidan tarixi islomni ko'b” bilishiga alohida urg'u beradi. Shuningdek, so'nggi paytlarda Turkistonda ham maorif rivojlanib, yangi usuldagi maktablar tobora ommalashib borayotgani va “ba'zi g'ayratlik muallim afandilar” maktablarini isloh etib, “tarixi islomdan ham dars bermak”ni boshlaganlarini olqishlaydi.

Risola bosilib chiqqanidan so'ng, uni keng targ'ib va tashviq etish maqsadida “Turkiston viloyatining gazeti” sahifasida Hoji Muin ibn Shukrulloh imzosi bilan “Yangi asarlar” sarlavhali xabar e'lon qilinadi. Unda muallif “turkistonli muallim qardoshlarimizga xayrixohona tavsiya” etib, “bu risoladan olib shogirdlarig'a ta'lim bersunlar. Chunki o'z tilimizg'a yo'limish buyla iftodali asarlara bag'oyat ehtiyojmandlig'imiz purzohir edi”, deb yozadi.

“Muxtasar tarixi islom” risolasi kirish so'zi o'rnidagi “Maqsad” hamda 46 ta kichik fasldan, har bir fasl so'ngida berilgan mavzuni mustahkamlashga qaratilgan savollar qismilaridan tarkib topgan. Aytish lozimki, fasllar so'ngida mavzu yuzasidan savollar berish orqali darslarni mustahkamlash va puxta o'zlashtirish maqsadi ko'zlangan. Bu muallifning o'sha zamon darsliklari va ta'lim tizimidagi usullardan samarali foydalaniganini ko'rsatadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ak-sar asar va maqolalarida islom dini ta'limoti, shariat qonun-qoidalarini xalqqa yetkazish, turli bid'at va xurofotlarga chek qo'yish masalalariga jiddiy urg'u berilgan. U bilimdon ulamo va muftiy sifatida Qur'oni Karim oyatlari va hadisi shariflardan keng istifoda etib, o'z nuqtayi nazari va fikrlarini aynan ushbu muqaddas manbalar bilan dalillashga harakat qilgan. Ezgu ta'limot zamiridagi g'oyalari insoniyat saodatiga xizmat qilishini teran anglash va boshqalarga ham to'g'ri anglatishga intilgani natijasida alloma chin ma'noda “xodimul millat” sharafiga muyassar bo'ldi.

Sohiba KARIMOVA
tayyorladi.

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Hoji Nizomiddin Obidov – 1869-yili Qiziltepa rayoni Arabon qishlog'ida tug'ilgan. “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida mag'lubiyatchilik, ig'vogarlik targ'ibotini olib borganlikda ayblangan. 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Jazo muddati 1937-yil 12-avgustdan hisoblangan.

Usmonjon Sarkorov – 1897-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. NKVD Andijon sektori yordamchi xo'jaligida ishlagan. 1922-yilda “Milliy ittihad” tashkilotiga a'zo bo'lgan. Tashkilotning Andijondagi bo'limi faollari qatorida “Milliy ittihad”ning rahbariyati yig'inlarida doimiy ravishda qatnashib, tashkilot faoliyatidan to'liq xabardor bo'lgan. Usmonjon Sarkorov 1930-yili sovet organlari tomonidan hibsga olinib, qamoq jazosiga hukm qilingan.

Majid Zokiriy – 1897-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkilotining faol a'zosi sifatida, “O'n sakkizlar guruhi”da qatnashgani uchun 1934-yili VKP(b) safidan chiqarilgan. Qamoqqa olingan paytda Urgut rayoni maorif bo'limi boshlig'i bo'lgan. Aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, trotskiychilarning otilishiga hamdardlik bildirganlikda ayblanib, shaxsiy mulklari musodara qilinib, O'zSSR NKVD Samarqand bo'limining 1256-sonli ayblov ishi bo'yicha otuvga hukm qilingan.

A'zamxo'ja Burxonxo'jayev – 1893-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919-yildan Eserlar partiyasida bo'lgan. Toshkent isyonida sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan. 1921–1929-yillari “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olingunga qadar O'zSSR Molliya xalq komissarligi xo'jalik boshqarmasi boshlig'i vazifasida ishlagan. Partiya va sovet hokimiyatiga, siyosatiga qarshi muntazam targ'ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev – 1891-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. U Chor Rossiyasi va Sovet rejimiga qarshi siyosiy faoliyati uchun bir necha bor ta'qibga uchragan. 1916-yil qo'zg'olonda ishtirok etgan. Eski qonda qamoqqa olingan. 1918-yili Toshkent Eski shahar ijroiya komiteti raisi o'rinbosari, 1918–1919-yillarda Turkiston ASSR Sog'liqni saqlash xalq komissari, Tashqi ishlar xalq komissari, BXSr Savdo va sanoat xalq noziri, XXSR Ijtimoiy ta'minot savdo-sanoat noziri lavozimlarida faoliyat olib borgan. 1937-yil 27-aprelda Olmaota shahrida qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi 1938-yil 4-oktyabrda Toshkent shahridagi yig'ilishida Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev otuvga hukm etilgan.

Muhammad Hasanov – 1904-yil 22-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. Qamoqqa olish paytida “Правда востока” gazetasiining muharriri bo'lib ishlagan. “Milliy istiqlol” tashkiloti a'zosi, Toshkent va viloyatlardagi gazeta tahririyatlariga mazkur tashkilotning ishonchli kishilarini qo'yishda xizmat qilgan deya ayblangan. Buni tasdiqlaydigan birona dalil keltirilmagan. U 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida sud qilingan. 1938-yil 4-oktyabrda otuvga hukm qilingan.

Abduqodir Qushbegiyev – 1882-yili Andijonda tug'ilgan. Xudoyorxon tomonidan bosh harbiy qo'mondon etib tayinlangan. Abduqodir 1897-yil, otasi vafot etgach, onasi bilan Andijonga amakisi Shermuhammad Aliqulov xonadoniga ko'chib kelishadi. Bu yerda rus-tuzem maktabi va gimnaziyada ta'lim oladi. U “Taraqqiyparvarlar” jamiyatidagi inqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoqqa hukm etilgan. Jazoni Solovki orolidagi konslagerda o'tagan. Ozod bo'lgach, Toshkentda bolalar uyida ishlagan. 1937-yil 9-avgustda yana qamoqqa olinib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi, 1-bandi bilan ayblangan. U o'ziga qo'yilgan ayblarni rad etgan. 1937-yil 10-avgustda muhdish uchlik hukmi bilan otilgan. 1989-yil 15-sentyabrda oqlangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



ORZU va AMAL

Boshlanishi 1-sahifada

Gazeta qisqa vaqtda davlat va jamoat arboblari, ziyolilar, keng jamoatchilik orasida katta obro'-e'tibor va e'tirofga sazovor bo'ldi.

Kitob Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning mazkur nashr bosh muharriri bilan kechgan "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" deb nomlangan suhbatini bilan boshlanadi. Ushbu suhbat e'lon qilinishi bilan oq yurtdoshlarimiz va xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg'otdi. Darhaqiqat, kitobni mutolaa qilar ekansiz, yangi O'zbekistonning qisqa, ammo shonli tarixi, islohotlarning tadrilijiy rivoji ko'z oldingizga keladi. Muallif qalamiga olgan har bir mavzu, suhbatida mana shu yangilanishlar jarayonini samimiy, ravon va sodda tilda, ayni damda jurnalistik nigoh bilan chuqur tahlil etgan.

Mazkur to'plamdan "Yangi O'zbekiston" nashrida chop etilgan maqolalar o'rinda olgan bo'lib, mohiyatan ikki qismga bo'linadi. Birinchi bo'limda muallifning

davlat va jamoat arboblari bilan suhbatlari o'rinda olgan bo'lsa, ikkinchi bo'limda Yangi O'zbekistonga qo'yilgan tamal toshlaridan boshlab, Vatan va millat istiqbolini, sha'ni va obro'si yo'lida amalga oshirilgan ezgu ishlar o'ziga xos uslubda teran tahlilga tortilgan. To'plamdan joy olgan maqolalarda Vatanga muhabbat, milliy urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari o'ziga xos ohanglarda tasvirlangan. Masalan, "Tashabbuslarning hayotbaxsh qudrati", "Odamiylik diyor", "Ulkan salohiyat qudrati", "Samarqand fenomeni" kabi maqolalar bu fikrlarning yorqin namunasidir.

Taniqli jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Salim Doniyorov 2010-yilda "Oltin qalam" tanlovi g'olibi bo'lgan. 2020-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni, 2025-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Tadbir doirasida Yozuvchilar uyushmasi fotografi Ahmad To'raning "Yangi O'zbekiston manzaralari" nomli ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

O'z muxbirimiz

TILBILIM

O'rda

O'rda so'zi turkiylarga yaxshi tanish. O'rda deb atalgan joylar ham bor. Mahmud Koshg'ariy o'rda so'zini ikki xil ma'noda sharhladi:

Ordu – sichqon, kalamush kabi yer ostida yashovchi hayvonlar ini.

Ordu – shoh turadigan shahar; o'rda. Shuning uchun Qashqarni Ordukand deyildilar, ya'ni shohlar turuvchi shahar demakdir.

"Turkiy tillar etimologik lug'ati"da ham o'rda so'zi "manzilgoh", "qarorgoh", "shiyon", "shoh saroyi", "qo'shin turargohi", "qabilalar ittifoqi", "shoh chodiri" ma'nolarida izohlangan. Ramsted faraziga ko'ra, o'rda so'zi turkiy tildagi o'rta so'zidan paydo bo'lgan. Chunki, o'rda har jihatdan

markaz bo'lgan. Bu lug'atda yana bir jo'yali taxmin ilgari surilgan. Qadimgi tilimizda *orut* (o'rut) degan so'z bo'lgan. *Orut* so'zi "turish", "joylashish", "bekat", "turargoh" ma'nolarini anglatgan. Abushqada ham bu so'z haqida ma'lumot bor. Xuddi shu *orut* so'zi o'rinda so'ziga ham asos bo'lgan bo'lishi mumkin: *orut* – *orun* – *o'rinda*.

Shu mulohazalarni yozayotganimda ko'nglimdan yana bir gap o'tdiki, uni qistirib o'tmasam bo'lmay. Men yurt so'zi haqida shu kitobning avvalgi nashrlarida maqola berganman. Lekin ayni damda yurt so'zining ildizi "joylashish", "turargoh" ma'nolaridagi *orut* so'ziga aloqadormaslik deb o'ylanib qoldim.

O'rda so'zini mo'g'ul tiliga qarashli deguvchi olimlar ham bor. Mo'g'ul imperiyasi zamonida Oltin o'rda nihoyatda mashhur bo'lgan. Garchi shunday bo'lsa-da ko'pchilik olimlar bu so'zni turkiy ekanligini e'tirof etadilar.

Eshqobil SHUKUR

HAJV

ZOYE

"Ba'zi boqimanda kayfiyatdagi fuqarolar o'z insoniy burchlariga panja ortidan qaramoqdalar".

Gazetadan

Bor-u, sanday noshudga hokim qabuli zoye, Uhdalab so'zloimasang, eh, davlat tili zoye.

Faqat "ber-u ber" deysan, pirim blogger deysan, Sulla ho'tikka, shaksiz, arpa-yu suli zoye.

Zavqing no'ldir nazmga, shavqing mo'ldir bazmga, Sanga hayf Maxtumquli, ham Axtamquli zoye.

Mo'yingda ishkaling ko'p, biri psixotrop, Sanday tirik tovonga ko'knoriguli zoye.

Ishli qildi mahalla, sanda mo'ljal taralla, San kibi oshxo'rakka "kartishka puli" zoye.

Aziz she'rxon, faraz et, tanishmi shul parazit? Sur cholib uyg'atmaka Cho'praning fili" zoye.

Vijdon*i qaynab Sattor, yasadi zarbdor ash'or, Zora, bo'lmasa she'r-u bedor bulbuli zoye!**


* *ishli mardumga kuzakda tarqatiladigan oqcha.*

** *"Fillar mening do'stlarim" hindi filmidagi uchinchi darajali qahramonga ishora.*

*** *arxaik so'z.*

Ustozlar tasarruf etgan radifdan foydalanib, tiramaning ilk yomg'iri shovqinida (no'yabning uchidan to'rtiga o'tar kechasi) yuragim o'rtona yozib tashladim.

Sattor SUROB



KUZATUV

Men anglagan HAQIQATLAR...

Ijodkor hech kim ko'rmagan narsani ko'radi, hech kim eshitmagan nasni eshitadi.

Izzat-nafs bor joyda ijod o'ladi. Izzat-nafs quliga aylangan odam hech qachon ijodkor bo'lmaydi.

Baliq qarmoqqa ilinib, qirg'oqqa otilganidagina suvning qadriga yetadi.

Oqillik yonida biroz telbalik

ham bo'lishi kerak. Daho darajasiga yetgan kishida ham qay bir imkoniyat uyg'onmay qolib ketgan bo'ladi.

Donishmandlardan ko'ra donolikka davosi bo'lmagan oddiy insonlar Xudoga yaqinroq bo'ladi.

Xudosiz dunyo – telba dunyo. Xudosiz odamda hech vaqo – na ma'no, na mohiyat bo'ladi. U hatto narsa ham emas.



XX asr Xudosiz asr bo'ldi. Tarixda bu asrdan ko'ra telba asr bo'lgan emas. Eng og'ir gunohlar, qirg'inbarotlar shu asrda sodir etildi.

Eshitmoq, tinglamoq – Xudo qasriga kirishning muhim sirlaridan biri.

Inson o'z "men"ini yaratmaydi, o'z "men"i bilan tug'iladi. "Men"ni yaratish ham Allohning ishi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

CHIDAGANGA CHIQARGAN!

Qarang, Senat majlisida ajrimlar masalasiga e'tibor qaratilibdi. Juda to'g'ri bo'libdi-da! Statistikaning ko'rib, esxonam chiqib ketay dedi. 2024-yilda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan nikohdan ajratishga doir 32 ming 217 ta ariza qanoatlantirilgan ekan. Shundan 54 foizi xarakter to'g'ri kelmasligini sabab, aniqrog'i, bahona qilib ko'rsatibdi.

Ajrashganlarning to'rtidan biri 30 yoshgacha bo'lgan kelin-kuyovlar ekanini o'qib, hayron qoldim. Bu yoshdagilarning to'yiga nari borsa 5-6 yil to'lgan. To'g'ri, g'iyohvand, o'g'ri, g'ar, zo'raonning asl basharasi 5-6 oyda ochiladi. Lekin bir odamni yaxshi tushunish uchun kamida o'n yil ketmaydimi? Qirg'iq yaqinlashayotgan bo'lsam, yoshligimda ajrashishlar juda kam edi. Borlari ham yo farzandsizlik, yo kasallikka o'xshagan chorasi mushkul masalalar orqasidan bo'lardi. Nima, u davr odamlarida xarakter yo'qmi?

O'zi shu gap qayovdan chiqdi? Kimning xarakteri bir-biriga yuz foiz to'g'ri kelar ekan? Ikki kita mustaqil odam, alohida aql va tuyg'u egasi, ikki xil muhitda tarbiyalangan yigit-qizning xarakteri, tabiiyki, mos kelmaydi. Menimcha, hozirgilar hayotni pazz o'yiniga o'xshab bir-biriga kiyilib tushadi deb o'ylasa kerak.

Kalavanning uchini qidirsangiz, hammasi to'ydan boshlangan bo'ladi. Bugun to'y qilaman deb, yigit tomon qarz ko'targani yetmaganday, kreditga o'tirib qolyapti. Ikki soatlik orzu-havas o'tgach, endi qarzni uzish, yana bu yog'iga yashash ham kerak. Pul jigardan bo'lmaganmi,

har kuni yetti mahal bankdan telefon qilsa, ostonangdan mahal-bemahal qarzni so'rovchilar taqillatmay kirib kelsa kelinposhshoning salomiyam, choy uzatishiyam yomqay qoladi-da.

Go'yo hammasiga kelin aybdorday qaynana qosh chimiradi, kuyovning ham qovog'i ochilmaydi. O'zbek oilalarida kelinning baxti ko'p jihatdan qaynangil-qayniopalarga bog'liq. "Cho'ponning tayog'idan, kelinning oyog'idan" degan maqol bor. Shular ichida kelin "aybsiz aybdor" bo'lib, "shumqadam"ga aylanadi. Axir, kim ajrashaman deb, oila quradi?

To'g'ri, bugun ajrashish jarayoni soddalashtirildi. Bu oilada zo'raonlikka barham berish, ayollar huquqi himoyasi uchun qilindi. Pashshadan fil yasab, arizani ko'tarib sudga chopish uchun emas. Bu raqamlar ortida qancha begunoh bola-yu, tug'ilmasdan yarim yetimga aylangan norasidalar taqdiri turibdi.

Yana bir gap. Ba'zi kalta o'ylovchi ayollar "aliment puliga yashayman" (ko'proq qaynonalar "kuyovdan aliment orqali o'ch olaman") deb xayol qiladi. Eh, bu xayollar! Bu pulga boringki, bolaning qornini to'ydirish mumkin (agar shu ham vaqtida to'lansa). Ammo boladan ko'ra xarajati tez o'sadi. Bunaqa paytda bir ayolning qaddi bukilib ketadi. Shuniyam hisobga olib qo'ysin yoshlar.

Menimcha, ajralish tashabbusi kimdan chiqsa, alimentni o'sha to'lashi kerak. Chidaganga chiqargan!

Hilola YUSUPOVA
Facebookdan

TIL VA JAMIYAT

"...BOLRIGA BATUT TEKIN"

Xudoga shukur, bu yilgi til bayramini ham shovqin-suron bilan eson-omon o'tkazib oldik. Ko'chalardagi yozuvlar va e'lonlarni tanqid qamchisi bilan savalab, jafokash ona tilimizning oldida bir sidra yuzimizni yorug', vijdonimizni pasanda qilganday bo'ldik. Endi keyingi oktyabr oyigacha til haqida o'ylamasak ham bo'ladi... – deb turganingda, naq ro'parangdan chidab bo'lmaydigan bir "bitik" chiqib tursa, chatoq ekan-da.

"Aksiya 100 000 Sum Xarit kilgan klentga bolriga batut tekin". Biron narsa angladigizmi? "Tekin"dan boshqa so'zi to'g'ri yozilmagan bu "topishmoq"ni yechish uchun uning qayerga ilinganini bilish lozim bo'ladi. Bu – kichik bir bolalar o'yingohi darvozasiga ilingan e'lon, bildirgi. O'yingoh ichida tepishar taom-u ichimliklar, muzqaymoq ham sotiladi. Aytilmoqchiki, kimning xaridi yuz ming so'mga yetsa, bolalari "batut"da bir muddat tekin sakraydi. Men ham avvaliga nima ekan, debman, ayniqsa, "bolriga"ni. Mantiqan o'ylab ko'rsam, bu "bolalariga" degani ekan. Mashhur kinoda aytilganiday: "Texnika mo'jizasini ko'rganman-u, lekin bunaqasini..."

Mushohada ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak, bugun ko'chadagi oddiy bir yozuv ham jamiyatning savodxonlik darajasini namoyon etadi, aslida. Bundan tashqari, yon-atrofingizdagi odamlar, bolalar, yoshlarning gap-so'zlariga bir e'tibor bering. Zamondoshlarimizning ong-u tushunchasi nihoyatda sayozlashib, jo'nashib ketmayaptimi? Ko'pchilik, ayniqsa, yoshlarning so'z boyligi o'ta qashshoq, oddiy gapni eplab



aytib bera olmaydi. Albatta, hamma aybni maktabga to'nkash insofdan bo'lmas. Bola so'zlashni maktabdan tashqari oilasida, ko'chakuyda ham o'rganadi – til tarbiyasi hech qachon, hech qayerda to'xtamaydi.

Har bir tuyg'u, tushuncha, orzu-maqсад, reja... barchasi inson ongida so'z shaklida namoyon bo'ladi. Mana shu So'z insonlarni harakatga keltiradi. Demak, so'z boyligi kambag'al odamning orzu-istaklari ham kambag'al bo'ladi. Qalbdagi tuyg'ularini to'g'ri nomlay olmaydigan odamda bora-bora tuyg'uning o'zi ham yo'qolishi, tabiiyki hol. Bularning barchasi mutolaadan, kitobdan, bayon va inshodan yiroqlashish oqibati emasmi? Shu nuqtayi nazardan, "Jadid bobomga maktub" tanlovini tashkil qilib, unda 40 mingdan ziyod o'quvchini qamrab olgani, ayni vaqtda, tanlovning yangi bosqichi reja qilinayotganini inobatga olsak, "Jadid" gazetasi buyuk ma'rifatparvarlarimizning sa'y-harakatlarini davom ettirgan holda, maqbul ish qilayotganga o'xshaydi.

Ikrom BO'RIBOYEV



Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 741

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 109

Lotin yozuvida – 11 632

Media kuzatuvchilar – 74 370

Buyurtma: G – 1040.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz